

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY IQTISODIY FAKULTETI

IJTIMOIIY-MADANIY FAOLIYAT KAFEDRASI

ISROILOV OQILJON TOHIRJON O'G'LI

**“IX–XII ASRLARDA O'RTA OSIYO ME'MORCHILIK
SAN'ATI: AN'ANALARI VA UNI O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. MUSULMON UYG`ONISHI DAVRIDA MOVAROUNNAHRDA IJTIMOYIY-MADANIY HAYOT.....	9
1.1. IX – XII asrlarda O`rta Osiyoda madaniy yuksalish. Musulmon uyg`onish davrining tarixiy shart-sharoiti.....	9
1.2. IX-XII asrlar O`rta Osiyo me`morchiligida aholi turar joylarining arxeologik yechimi.....	19
II BOB. MUSULMON UYG`ONISHI DAVRI O`RTA OSIYO ME`MORIY YODGORLIKLARI.....	29
2.1. Minoralar arxitekturaviy usuli. Saroy va maqbaralar qurilishi.....	29
2.2. Uyg`onish davri madaniy jarayonlarining me`morchilik uslublariga ta`siri ...	36
XULOSA.....	49
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	53

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan ijtimoiy fanlarda ham tub o`zgarishlarga asos soldi. Eng avvalo ularning nazariy – uslubiy asoslari yangilandi. Ayniqsa, tarix fanining nazariy-uslubiy asoslari, uning maqsad va vazifalari tubdan o`zgardi. O`zbekiston Respublikasi prezidenti I. A. Karimovning mamlakat tarixchi olimlari bilan uchrashuvi va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to`g`risida»gi qaroridan so`ng O`zbekiston davlatchiligi tarixini o`rganishga yondashuv o`zgardi¹. Ilgari sovet hokimiyati mafkurasiga xizmat qilgan tarix fani zimmasiga xalqning tarixiy xotirasini tiklash, haqqoniy tarixni yaratish vazifasi yuklandi.

Mustaqillikka erishganidan so`ng O`zbekiston o`tgan yigirma ikki yil ichida o`ta mashaqqatli va sharaflı yo`lni bosib o`tdi. Buni oldindan yaxshi bilgan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ozodlikka erishgan dastlabki kunlarimizda «O`z istiqlol va taraqqiyot yo`limiz – bu gul bilan qoplangan yo`l emas, bu totalitarizm merosidan xalos bo`lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo`lidir», deb aytgan so`zlari zamirida qanchalik chuqur hayotiy ma`no borligini yana bir bor anglaymiz².

Xalqning o`zligini anglab etishiga xizmat qilish tarix fanining muhim nazariy asosidir. Prezident I. A. Karimov ta`kidlab o`tganidek, «Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o`lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o`zlikni anglashni, ta`bir joiz bo`lsa, milliy iftixorni tiklash va o`stirish jarayonida g`oyat muhim o`rin tutadi»³.

Shu o`rinda O`zbekiston tarixida muhim o`rin tutgan IX-XII asrlar O`rta Osiyo uyg`onish davrida me`morchilik taraqqiyotiga xizmat qilgan holatlarni o`zbek davlatchiligi hamda etnik tarixini o`rganish, bu davrda O`rta Osiyoda yuz

¹ ЎзР ФА Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисидаги Вазирлар маҳкамасини қарори. Халқ сўзи 1998 й, 29 июль

² Karimov I. A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O`zbekiston, 2011. – B. 27.

³ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. – Т. Ўзбекистон. 1997. – Б.140.

bergan jarayonlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy xususiyatlari, uning o`ziga xos jihatlari, arxitektura uslublarning yo`nalishlarini chuqur o`rganib, unga xolisona baho berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu muammolarning xolisona tahlili IX-XII asrlarda O`rta Osiyoda markazlashgan mahalliy sulola vakillarining mustahkam davlat tuzishi, madaniy taraqqiyot uchun xizmat qilgan tarixiy shart-sharoit atrofida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini chuqurroq anglab etishga, uning madaniy hayoti hamda hukmdorlarning bunyodkorlik shaxsiy fazilatlarini, bu xususiyatlarni to`la anglash Musulmon uyg`onishi davrida mamlakat salohiyatini saqlab turgan ichki omillarni aniqlashga xizmat qiladi. Mavzuning dolzarbligi ana shu jihatlari bilan belgilanadi. Zero, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta`kidlaganidek «...tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasorati tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda»⁴. Prezident tarixiy xotira to`g`risida fikrini davom ettirar ekan: «Tarixiy xotira tuyg`usi to`laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o`tgan yo`l o`zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo`qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o`rganilgan taqdiridagina chinakam tarix bo`ladi,»⁵ – deya haqli ravishda qayd etgan.

Mavzuning o`rganilishi darajasi tahlili shuni ko`rsatadiki, O`rta Osiyoning musulmon uyg`onish davri tarixi bo`yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarning asosiy qismida e`tibor Movarounnahrda uyg`onish davrining vujudga kelishi jarayonini jahon tarixining umumiy bir qismi sifatida qaralib, unda O`rta Osiyo me`morchiligining vujudga kelishi, an`analari, o`ziga xos xususiyatlari arxeologik materiallar asosida talqin etiladi. O`rta Osiyoning IX-XII asrlar davri me`morchilik tarixiga bag`ishlangan asar va adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- 1) Sovet davrida chop etilgan tarixiy tadqiqotlar.
- 2) Mustaqillik davri tarixiy tadqiqotlari.

⁴ Karimov I. A. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6 – жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 127.

⁵ Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma`naviyat, 2008. – B. 97.

Birinchi guruhga ya`ni, sovet davri adabiyotlari tahlili shuni ko`rsatadiki, ko`pgina tadqiqotlarda ushbu davlatda kechgan jarayonlar O`zbekiston tarixining o`zga muammolari singari kabi kommunistik mafkuraga bo`ysundirilgan holda, sinfiylik nuqtai nazaridan o`rganilgan.

Shuningdek, davlat boshqaruvidagi yangilik va etnogenez masalaridagi yondashuvlar partiya ko`rsatmalaridan chetga chiqmagan holda tahlil etilishi, madaniy hayot va davlatchilik masalasiga noto`g`ri yondashuvga olib kelgan.

Shunday tadqiqotlar jumlasiga, V. V. Bartol'd, I. P. Petrushevskiy, F. I. Uspenskiy, S. G. Agadjanov, L. V. Stroyeva, V. M. Beylis, Z. M. Buniyodov, R. A. Guseynov, V. L. Vyatkin, Sh. S. Tashxodjeyev, Sh. R. Pidayev, Yu. V. Krayev, O. G. Bolshakov va boshqalarning asarlarini kiritish mumkin⁶.

Ushbu asar va tadqiqotlar sovet mafkurasi talablari asosida yozilgan bo`lishiga qaramay, o`zining faktik ma`lumotlarga boyligi bilan ahamiyatlidir.

Ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar kiradi. O`zbekiston mustaqillika erishganidan keyin, O`zbekiston tarixini ilk bora chuqur va keng o`rganish, unga obyektiv – xolisona baho berish imkoniyati paydo bo`ldi. Mustaqillik yillarida vatanimiz tarixchilari tomonidan o`zbek davlatchiligi tarixida muhim o`rin tutgan davlatlar, xususan, qoraxoniylar hukmronligi davri to`g`risida ko`pgina tadqiqotlar olib borildi, maqolalar e`lon qilindi, risolalar yaratildi va nashr etildi.

Mustaqillik yillarida qoraxoniylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, uning Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixida tutgan o`rni yuzasidan

⁶ Бартольд В.В. Обзор истории тюркских народов. Сочинения. Т.5. – Москва, 1968. – 430 с.; Петрушевский И.П. Сельджукское государство. Советская историческая энциклопедия. Т.12. – Москва, 1976. – С. 720; Успенский Ф.И. История Византийской империи. Т.3. – М-Л., 1948. – 274 с.; Агаджанов С.Г. Сельджукиды и Туркмения в XI-XII вв. – Ашгабад., Илим, 1973. – 173 с.; Строева Л.В. Движение исмаилитов в Исфохане в 1100-1107 гг. // “Вестник ЛГУ”. – Ленинград, 1962. – № 14. – С.60-66; Бейлис В.М. Из истории везирата в период кризиса сельджукского государства. Везир Муаййид ал-Мулк // Средневековый Восток. История. Культура. Источниковедение. – Москва: Наука, 1980. – С. 34-49; Буниёдов З.М. Гарс ан-Нима – историк сельджукиского периода // Средневековый Восток. История. Культура. Источниковедение. – Москва: Наука, 1980. – С. 49-53; Гусейнов Р.А. Взаимоотношения Византии и сельджуков в Малой Азии в XI-XII вв. // Средневековый Восток. История. Культура. Источниковедение. – Москва: Наука, 1980. – С. 120-127. Вяткин В.Л. Афрасиаб – городище белого Самарканда. Археологический очерк. – Ташкент, 1927. – С. 116; Ташходжаев Ш.С. Самаркандский жилой дом IX-X вв. // ИМКУ. Вип. 13. Ташкент, 1977. – С. 52; Пидаяев Ш.Р. Северные пределы Шахизиндинского кладбища // К исторической топографии древнего и средневекового Самарканда. – Ташкент, 1981. – С. 46; Краев Ю.В. Открытие караханидской настенной живописи в Самарканде // Вестник истории литературы искусства. Т. VI. М., 2009. – С. 24; Болшаков О.Г. Город в консе VIII – нач. XIII в. // Средневековой город Средней Азии. – Л., 1973. – С. 142.

K. Shoniyozov, A. Ziyov, Sh. Karimov, R. Shamsutdinov, A. Asqarov, Sh. Vohidov, A. Erkinov, Q. Usmonov, M. Sodiqov, M. Q. Ahmedov, B. Oripov, M. M. Vaxitov, Sh. R. Mirzayev va boshqa mualliflarning ilmiy tadqiqotlari e'tiborga molikdir⁷.

Mustaqillik davrida yaratilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyo uyg'onish davri tarixining ayrim jihatlari qator maqola va risolalarda qisman va umumiy tarzda yoritilgan. Shuningdek, Uyg'onish davrida Movarounnahrda yashagan Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixi hamda madaniy hayotida tutgan o'rni xususida adabiyotlarda juda kam ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. «IX-XII asrlar davri me'morchiligi» mavzusi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- Musulmon uyg'onish davrining vujudga kelish tarixiy shart-sharoiti va mahalliy sulolalarning hokimiyatni egallash jarayonini o'rganish;

- Uyg'onish davrining butun insoniyat, jumladan, X-XII asrlar Markaziy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayotiga ko'rsatgan ta'sirini tahlil etish;

- Uyg'onish davrida yuz bergan etnik jarayonlarni O'rta Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixida tutgan o'ziga xos o'rnini ko'rsatib berish;

- mahalliy sulolalar tomonidan asos solingan markazlashgan davlatlarni boshqaruvi an'analarini o'zbek davlatchiligi tarixidagi o'rnini aniqlash;

- O'rta Osiyo xalqlari madaniy ahvolini tahlil etish va shu orqali me'moriy yodgorliklar yechimini, uning qurilish uslublarini ko'rsatib berish;

⁷ Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 462 б.; Зиё А. Ўзбек даладлиги тарихи. – Тошкент.: Шарқ, 2000. – 366 б.; Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-qism. – Toshkent: Sharq, 2010. – 512 b.; Asqarov A. Ўзбекистон тарихи. 1-қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992; Uning o'zi. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007; Низомулмулк. Сиёсатнома ёки Сияр ул-мулк / Таржимонлар Воҳидов Ш., Эркинов А. – Тошкент., Адолат. 1997. – 255 б.; Usmonov Q., Sodiqov M. Madaniyatshunoslik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2008. – B. 26; Ahmedov M. Q. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 1995. – B. 32; Oripov B. O'zbekiston me'morchiligi va san'ati tarixi. – Namangan, 2007. – B. 44; Vaxitov M.M., Mirzayev Sh. R. Me'morchilik. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – B. 161; Sagdullayev A., Ergashev F. O'zbekiston tarixi fani bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. –B. 99.

– Movarounnahr aholisining bunyodkorlik faoliyati, bu davrda qurilgan tarixiy yodgorliklarni arxitekturaviy yechimini o`ziga xos xususiyatlarini ko`rsatib berish;

– Yuqoridagi keltirilgan barcha fikrlarni o`sha davrda hukm surgan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jihatdan O`rta Osiyodagi dastlabki markazlashgan mustaqil davlatlarga tuzilishi va boshqaruvi jihatidan o`xshash bo`lgan davlat birlashmalari bilan taqqoslash va qiyosiy o`rganish.

Tadqiqotning manbalari. Nodira nomidagi Namangan Markaziy kutubxonasi va Namangan Davlat universiteti asosiy kutubxonasida saqlanayotgan nodir asarlar, gazeta va jurnallar, turli hajmdagi ilmiy to`plamlar bitiruv malakaviy ishining manbaviy asosini boyitishga hizmat qildi.

Tadqiqot obyekti. IX-XII asrlar oralig`ida O`rta Osiyo xalqlarining bunyodkorlik faoliyati, jumladan Movarounnahrda qurilgan tarixiy obidalar tadqiqot ob`ekti sifatida belgilandi.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Tadqiqotning davriy chegarasi sifatida IX-XII asrlar, ya'ni O`rta Osiyoda yuz bergan Uyg`onish davri tanlab olingan.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari. Bitiruv malakaviy ishining etakchi ilmiy kontsepsiyasi muommoga tsivilitsion yondashuv ekanligini hisobga olgan holda, mustaqil O`zbekiston Respublikasining milliy istiqlol mafkurasining ustuvor va maqsad vazifalari g`oyaviy asos qilib olindi. Bu yangi ilmiy kontsepsiyasi xalqning milliy qadiryatlari, urf- odati va turmush tarzini, to`plangan bilimlari va hayotiy falsafasi bilan uni boyitib, o`rganilayotgan muammoni barcha qirralarini yangicha baholash mezoni asosida ishlab chiqish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishida o`rganilayotgan muommoni to`g`ri hal etishda ilmiy bilishning holislik, tarixiyli, qiyosiy va tanqidiy o`rganish, tizimlilik tamoyillariga amal qilindi. Tadqiqotning metadalogik asosini ishlab chiqishda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning asarlari, maruza va nutqlarida ilgari surilgan uslubiy, ilmiy nazariy ko`rsatmalari muhim ro`l o`ynadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Nazariy jihatdan olib qaraganda, Bitiruv malakaviy ishida berilgan xulosalardan, takliflardan

qoraxoniylar davlatining tashkil topishi, uning ijtimoiy siyosiy hayoti, etnik munosabatlarda qarluq, chigil, yag`mo qabilalarining tutgan o`rni bilan bog`liq muammolarni o`rganishda, O`zbekiston tarixida arab xalifaligidan mustaqil bo`lgan ilk markazlashgan turkiy davlatlarning tarixidan yoshlarning ma`naviy boyishida foydalanishda foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, BMI materiallaridan mustaqil O`zbekistonning o`rta asrlar davri tarixi bo`yicha umumlashtiruvchi tusga ega tadqiqotlarni tayyorlashda, O`rta Osiyo xalqlarining etnik tarixi, madaniy hayoti bilan bog`liq tadqiqotlariga bag`ishlangan monografik ishlarni yaratishda, oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlari tizimida ma`ruza-seminar mashg`ulotlarini uyushtirish va o`tkazishda hamda maxsus kurslarni olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati iborat.

I BOB. MUSULMON UYG`ONISHI DAVRIDA MOVAROUNNAHRDA IJTIMOIIY-MADANIY HAYOT

1.1. IX – XII asrlarda O`rta Osiyoda madaniy yuksalish. Musulmon uyg`onish davrining tarixiy shart-sharoiti

Movarounnahr va Xuroson hududlarida IX-XII asrlarda yuz bergan musulmon uyg`onish davri xususida XX asr xorij olimlaridan A. Mets, E. Bosvfort, S. Len-Pul, A. Tryunebaum, vatanimiz olimlaridan G. A. Pugachenkova, M. Ye. Masson, M. Xayrullayev, A. Irisov, U. Karimov, H. Hasanov, F. Sulaymanova va boshqalar tadqiqotlari alohida e'tiborga sazovordir. Mustaqillik yillarida mazkur davrda faoliyat ko'rsatgan ko'plab buyuk vatandoshlarimizning ilmiy meroslari chuqur o'rganilishi boshlandi. Ularning tavallud yoshlari keng nishonlandi. «Ma'naviyat yulduzlari», «Buyuk allomalar, siymolar» va boshqa shu turdagi qator kitoblar chop etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov farmoni bilan XI asrda faoliyat ko'rsatgan Xorazm Ma'mun Akademiyasi faoliyati qayta tiklandi. Fanda «Uyg`onish davri» deb ataladigan davr G'arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarda XIV-XVI asrlardagi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Birinchi marotaba «uyg`onish» atamasini XVI asr italyan rassomi va tarixchisi J. Vazari o'z asarlarida ishlatadi. «Uyg`onish», «uyg`onish davri» atamalari XIV-XVI asr ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mohiyatini ochib bermasdan, ko'proq antik davr merosini, ya'ni antik madaniyatga o'xshash madaniyatni qaytadan «tirilishi», «uyg`onishi» ma'nosida ishlatila boshlandi. Keyinchalik fanda bu atama keng qo'llanila boshlandi. Shu ma'noda ko'pchilik tadqiqotchilar IX-XII asrlar O`rta Osiyo xalqlari tarixida madaniyatning rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlarni ham «uyg`onish» davri deb atalishi yuqorida qayd qilinganidek, shartlidir deb hisoblaydilar⁸.

IX-XII asrlar O`rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish davri bo'ldi. VIII asrda

⁸ Sagdullayev A., Ergashev F. O'zbekiston tarixi fani bo'yicha o'quv qo'llanma. – T., Yangi asr avlodi, 2009. –B. 99.

Arab xalifaligi hozirda O'rta Osiyo deb atalmish hududni fath etib bo'lgan, bosib olingan yerlarda islom dini keng yoyilib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayot Arab xalifaligi tartib-qoidalariga butunlay bo'ysundirilgan edi. Xalifalik tarkibiga kiritilgan o'lkalarda faqat islom dinigina emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki, arab tili xalifalikning davlat tili bo'lsa, islom dini uning mafkurasi edi. Shu sababli bu mamlakatlarda arab tilini o'zlashtirishga intilish kuchli bo'lgan. Islomni qabul qilgan aholining arab tili bilan muloqoti, ibodat vaqtlarida Qur'on suralarini tilovat qilishdan iborat bo'lgan bo'lsa, mahalliy zodagonlar arab tilini xalifalik ma'murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o'z siyosiy mavqelarini tiklab uni mustahkamlashning garovi deb hisoblaydilar. Arab tiliga bo'lgan bunday ehtiyoj va intilish tufayli ko'p vaqt o'tmay Movarounnahrda hatto o'z ona tilidan ko'ra arab tili va yozuvini o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ldi.

Bu hol o'z navbatida arab tili va yozuvini Movarounnahrda keng yoyilishiga imkoniyat yaratib berdi. Ammo VIII asr oxiri IX asr boshlarida bo'ysundirilgan xalqlarni mutloq itoatda saqlab turish nafaqat xalifalik markazi ma'murlariga, balki o'lkalarga tayinlangan noib uchun ham tobora qiyinlasha bordi.

IX asrning oxirgi choragida Movarounnahr Somoniylar qo'l ostiga o'tib, mustaqillikni yanada mustahkamlab oladi. Somoniylar sulolasining eng yirik vakillaridan biri bo'lmish Ismoil Somoniy kuchli davlat tuzishga harakat qiladi va bu ishni muvaffaqiyatli ravishda uddasidan chiqadi. Somoniylar o'z davlatlarini o'zlarigacha bo'lgan sharq davlatlarining boshqaruv an'alarini chuqur o'rgangan holda, ularga suyanib, zamon talablarini hisobga olgan holda o'zgartirishlar kiritib boshqarishga harakat qildilar.

Movarounnahr deb ataladigan hududda mustaqil davlatlarning tashkil topishi ularda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy hayotning ravnaqiga katta ta'sir ko'rsata boshladi. Buxoro, Samarqand, Urganch va Marv kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida shakllanib, rivojlana boshladi.

O'rta Osiyoda IX-XIII asr boshlarida Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Xorazmshohlar davlatlari hukm surdilar. Bu davlatlar xalqaro

maydonda o'z mavqei va tutgan o'zni jihatidan katta e'tibor va nufuzga ega bo'ldilar. Ahmad, Nasr, Ismoil Somoniy, Alptakin, Mahmud G'aznaviy, Tog'ulbek, Sulton Sanjar, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko'ra oladigan davlat arboblari davrida O'rta Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishlarga erishildi, davlat hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi.

Tarixchi Abu Mansur as-Saolobiyning Somoniylar Buxorosiga bergan ta'rifi butun O'rta Osiyo davlatlarining IX-XIII asrlardagi ahvoliga tegishlidir: «...shonshuhurat makoni, saltanat ka'basi va zamonasining ilg'or kishilari jamlangan, yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan hamda o'z davrining fozillari yig'ilgan (joy) edi». O'rta Osiyo hukmdorlari ilm ahli bilan yaqinlashdilar, mamlakatni boshqarishda ularning bilimi va maslahatlaridan foydalandilar. Hukmdorlarning aksariyati bu davrda o'z saroylarida olim, shoir va usta san'atkorlar, turli sohalar bo'yicha qimmatbaho kitoblarni to'plashga odatlandilar.

VIII asr oxiri – IX asr boshida xalifalikni larzaga keltirgan og'ir siyosiy vaziyat abbosiylarning Movarounnahr va Xurosonda olib borayotgan siyosatini o'zgartirishga majbur etdi. Birin-ketin O'rta Osiyoda tohiriylar, safforiylar, somoniylar davlatlari tashkil topdi. Mamlakatda sodir bo'lgan bunday siyosiy o'zgarishlardan so'ng Movarounnahr Xurosondan ajralib o'z mustaqqilligini to'latiklab olish imkoniga ega bo'ldi. Movarounnahrni birlashtirib mustahkam davlat tuzgan davlat arbobi Ismoil Somoniy, 900 yilda Xurosonni ham safforiylardan tortib olib ulkan davlat barpo etdi. Xalifa somoniylar davlatini tan olishga va unga hukmronlik yorlig'ini yuborishga majbur bo'ldi. Shu tariqa IX asr oxirlariga kelib Movarounnahr xalqlari Arab xalifaligidan abadiy xalos bo'ladi va arab xalifaligidan mustaqil bo'lgan yirik feodal davlat – Somoniylar davlati tashkil topadi.

Arablar Xuroson, Movarounnahr va Xorazimni bosib olgach, hamma yerda bo'lgani kabi o'lkamida xam qattiqqo'llik bilan yurtni arablashtirish siyosati olib bordilar. Bu borada islom dini, Quonikarim ustalik bilan foydalanildi. O'lkada islom dini bilan birga qatorda arab tili davlat tili, islom dini tili va fan tili

darajasiga ko'tarildi. Mahalliy tilda yozilgan asarlar yo'q qilindi, yerli bilimdonlar quvg'in ostiga olindi. Arab tilini, islom dini Quroni karimni yaxshi egallagan va bilgan shaxslarning jamiyatdagi o'rni nufuzi oshdi. Bu arab tilga va Xorazmda ham xatto o'z ona tiliga nisbatan arab tilini yaxshi bilgan tolibi ilmlar borgan sayin ko'payib bordilar. Arab tili va islom dini bo'yicha mukammal bilim va malakaga ega bo'lganlar arab xalifaligining markaziy shaharlariga borib o'qishni odat tusiga, an'anaga aylantirdi. Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa, Basra va boshqa shuning singari katta shaharlarda Movoraunnahr va Xorazmdan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan avlod-ajdodlarimiz soni borgan sayin ko'payib bordi. Xususan, bu borada Bag'dod shahri Sharqning ilm-marifat markazi sifatida katta ahamiyat kasb etdi. IX asrda bu shaharda «Bayt-ul-xikma» («Donishmandlar uyi») – Sharqning fanlar akademiyasi tashkil etildi. Xuddi shunga monand X asr oxirlarida Xorazmdan podsho Ma'mun ibn Ma'mun davri (995-997)da (Donishmandlar uni) tashkil etildi. Urganch tashkil etilgan bu «Bayt-ul-hikma» - "Ma'mun akademiyasi" (Xorazim akademiyasi) deb nomlanadi. Bag'dod va Urganchdagi «Donishmandlar uyi»da o'z vaqtida nomlari dunyoda mashhur ulug' alloma va mutafakkirlar tahsil ko'rganlar. Ular orasida Ahmad Farg'oniy, Al Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino, ibn al-Xammor, Abu Saxl Masixiy, ibn Iroq kabi ulug' va buyuk zotlarning nomlari bor. Movoraunnahr va Xorazmda IX-XII asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda yuz bergan ijobiy yutuqlar va mutaffakkirlar haqida gap ketgan, ana shu yutuq va mutaffakkirlarning asosiy omili va sababchisi bo'lgan markazlashgan mustaqil davlatning vujudga kelganligini nazar-etibordan qochirmasligimiz kerak, albatta.

O'z mavqei va tutgan o'rni jihatidan xalqaro maydonda katta e'tibor va nufuzga ega bo'lgan Markaziy Osiyodagi somoniylar, qorahoniylar, g'aznaviylar, Tug'rulbek, Sulton Sanjar Anushtegin, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko'ra oladigan davlat arboblari davrida har tomonlama rivojlanib, madaniy tarqiyotda mufaqiyatlarga erishdilar.

Chunki bu hukumdorlar davrida mamlakat davlat mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoishtalik va barqarorlik vujudga keldi. Natijada moddiy ishlab chiqarish

rivoj topdi, hunarmandchilik va savdo taraqqiy etdi, madaniyat gurkirab o'sdi. Bu davrda «Buyuk ipak yo'li»ning o'rni va ahamiyati oshdi, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivoj topgan obod va ko'rkam shaharlar vujudga keldi. Buni shundan ham bilish mumkin al-Muqaddasiyning yozishicha (985 yilda yozgan) 830-933 yillarda Xorazmda 13 shahar mavjud bo'lgan bo'lsa, yarim yildan so'ng shaharlar soni 33 taga yetgan. Bular: Kos, Gardmon, Oyxon, Orzaxiva, No'qfog', qardor, Mizdakxon, Jashira, Sadvor, Zardux, Borategin, Madmimiya (Jayxun daryosining o'ng sohilida) , Jurjoniya , Raxushmison, Madanisan, Xiva , Kardaran, Hazorasp, Jig'arband, Joz, Darg'on, Jit, Kichik Jurjoniya, ikkinchi Jit, Safdor, Nuzvor, zamaxshar, Ruzun, Vazirmand, Vaskaxankas Andarosgondir.

Muqaddasiyning so'zlariga qaraganda, Xorazm aholisi aql-zakovatli, fikr ilimni egallagan marifatli kishilar bo'lganlar. Xalifalik shaharlarida fiqh, adabiyot, Quronni o'rganish sohasida shogirdi bo'lmagan xorazmlik imom (bu yerda yirik olim ma'nosida) kamdan-kam uchragan.

IX-XII asr ma'naviy hayotida islom dini muhim o'rin egallaydi. Bu davrda musulmon Sharqida keng tarqalib, jahon dini darajasigacha ko'tarilgan islom dini va shariat musulmon dunyosining mafkurasiga aylandi. Arab xalifaligining fotihlik siyosati natijasida o'zining barcha haq-huquqlaridan ajralib, madaniyati oyoq osti qilingan Movaraunnahr aholisi o'z e'tiqodi va xat savodidan mahrum bo'lib, islom dini qabul qilishga, shariay ahkomlarini bajarishga, shunindek arab tili va yozuvini o'rganishga majbur bo'ldi⁹. Ko'p vaqt o'tmay e'tiqodli xalq o'ziga yod bo'lgan arab imlosida xat-savod chiqarishga kirishdi. Movaraunnahr ahaolisining murakkab arab imlosini o'zlashtirib, xat-savodli bo'lishi uchun arabiy tilni mukammal o'rganib, bu o'zga tilda asarlar yarata oladigan olim va mutaffakkirlarning yerli xalq orasida yetishib chiqishi uchun qariyb bir yarim asr, ya'ni besh avlodning umri sarf bo'ldi.

Renessans, ya'ni Uyg'onish faqat Yevropa hodisasi emas. Dunyo madaniyatini yaxlit olib o'rgangan olimlarning ishlari shuni ko'rsatdiki, Osiyo

⁹ Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. 1-qism. – T., Sharq, 2010. – 422 b.

markazida joylashgan Movarounnahr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (IX-XII) ulkan madaniy ko'tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg'or insonparvarlik g'oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan.

Bu davr dunyo ilmida «Musulmon Renessansi» (A. Mets) yoki «Sharq Uyg'onishi» (N. I. Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda¹⁰.

Sharq Uyg'onish davrida Yevropa Uyg'onish davrining asosiy belgilari mujassam: jo'shqin ijodiy faoliyat, ulkan bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilgani, aqlni hayratga soluvchi bemisl asarlarning yaratilgani shundan dalolat beradi. Sharq Uyg'onish davri ham ulug' allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni yetishtirdi. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G'azoliy, Nasafiy Aziziddinlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqiddi. She'riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulalo al-Ma'arriy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin, Rumi, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi daho ijodkorlar yetishib, o'lmas asarlar yaratdilar, ishq muhabbat, qahramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar. Miniatyura rassomchiligida bir necha maktablar shakllandi, bunda Kamoliddin Behzod rasmlari yangi ijodiy yo'nalishga asos soldi.

Movaraunnahr va Xurosonda xalifalik hukmronligi tugatilib, mustaqil Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G'aznaviylar va Xorazmshohlar davlati qaror topgach, islom ta'limoti, shariat ahkomlari va ilmu ma'rifatga yanada e'tibor kuchaydi. Markaziy shaharlarda qator masjid va madrasalar qad ko'tardi. Manbaralardan ma'lum bo'lishicha, dastlabki madrasa Buxoroda X asrda shaxarning Kovushdo'zlar timi yaqinida bino qilingan. U Farjak madrasasi deb yuritilgan. XII asrda bu esa Buxoroning Darvoza mahallasida hatto

¹⁰ O'zbek Milliy Ensiklopediyasi. – T., Qomuslar bosh tahririyati, 2005. – B.344.

qonunshunoslar uchun maxsus «Faqihlar madrasasi» qurilgan. Bungay oily dorilfunun asosan islom dini ta'limotining asosiy manbalari: Qur'oni Karim, Hadisi sharif va arab tilining mukammal o'rganishga katta e'tibor bergan. Shariat ahkamlari har tomonlama chuqur o'rgatishda «Tavsir»- Qun'oni Karimning sharhlari juda boy va qimmatli manba hisoblangan. Fiqh fani (islom huquqshunosligi) axloq va shariat ahkamlari borasida mukammal ma'lumot beradi.

Islom dini ta'limotining ravnaqi va targ'ibotining kengayishida, ayniqsa Buxoro shaxri markazga aylandi. Buxoro madrasalaridan juda ko'p yetuk fiqhshunos olimlar, odil qozilar, zohid imomlar yetishib chiqadi. Shu boisdan Buxoro IX asrdan boshlab «Qubbat ul-islom» →»Islom dinining gumbazi» nomi bilan shuhrat topadi.

Biroq hukmdor tabaqa mamlakatni idora qilishda imkoni boricha islom dinidan mafkuraviy qurol sifatida foydalaniladi. Mafkuraning barcha sohalari islomga tobe qilinib, zardushtiylik e'tiqodi qoldiqlariga qarshi shavqatsiz kurash olib boriladi. Mehnatkash aholi ustidan zabr-zulm zo'rayib, har qanday hurfikrlilik ta'qib ostiga olinadi. Buning oqibatida zuhmatkash xalqning tashvish azobi ortib, hayoti g'oyat og'irlashdi.

Tarix shohidlik beradiki, eramizning I ming yilligini oxirlariga kelib O'rta Osiyo sharq tafakkuri olamining markaziy o'lkalaridan biri bo'lib qoldi. Buxoro, Samarqand, Marv, Urganch, Xo'jand kabi shaharlarda «Bayt ul-Xikmat» (Donishmandlar uyi) lar shakllanadi.

Bu davrdan boshlab O'rta Osiyolik ko'plab ilm daholari Yunon va Hind ilmiy merosini tarjima qildilar, ularga sharhlar yozdilar, ularni ilmiy nazariyalarini davom ettirdilar va yangidan-yangi fanlarga asos soldilar.

O'rta Osiyolik olimlardan: Muso Al-Xorazmiy, Muhammad al Farg'oniy, ibn Xamadan, Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Tusiy, Abu Saxl Masixiy, Ulug'bek, Rumi, Ali Qushchi, Navoiy, Behzod, Bobur kabi olimu-allomalar O'rta Sharq olamini butun dunyoga tanitdilar. Ularning ilmu tafakkurlari bugungi kungacha matematika, fizika, astronomiya, geografiya, meditsina, geodeziya, tabiatshunoslik, tilshunoslik, san'at,

memorchilik, kimyo, din, falsafa tarix va boshqa fanlar uchun nazariy manba va dasturi-amal bo‘lib kelmoqda.

IX-X asrda O‘rta Osiyoda aniq va tabiiy fanlar matematika, fizika, astronomiya, geografiya, meditsina, geodeziya, tabiatshunoslik, kimyo, minirologiya kabi fanlarni o‘rganuvchi fanlar akademiyasi Xorazmda (Urganchda) Shox Ma'mun – II tomonidan tashkil etiladi. Akademiyaga Abu Rayhon Beruniy rahbarlik qiladi. U bilan birga Abu Ali ibn Sino, Abu Saxl Masixiy, Abulxasan Xammor kabi taniqli olimlar ijod qildilar.

XI-XII asrlarda Farg‘oniy, Xorazmiy, ibn Sino, Kindiy, ibn Rushd kabi fan allomalarining ko‘plab ilmiy asarlari lotin tiliga tarjima qilinadi.

Xorazm shohi Ma'mun akademiya faoliyatiga kattagina shart – sharoit yaratib beradi. Lekin, 1017 yili Xorazmni Mahmud G‘aznaviy tomonidan bosib olishi va olimlarni majburan G‘aznaga ko‘chirilishi bilan Urganch fanlar akademiyasi faoliyati to‘xtaydi. Urganch fanlar akademiyasi faoliyati jahon fani ravnaqiga juda katta ilmiy meros qoldirdi. Ayniqsa, Beruniy va ibn Sinoning ilmiy merosi jahon fanlari xazinasiga salmoqli ulush bo‘lib qoldi.

Insoniyat tarixining eng qadimgi madaniy o‘choqlaridan biri hisoblanmish Turkiston tarixiy taraqqiyotning o‘nqir-cho‘nqirlariga qaramay doimo o‘zining sernufusligi bilan ko‘zga tashlanib kelgan. Va, tabiiy ravishda hayot shahar va vohalardan tashqarida – dashtu biyobonlarda ham qaynagan. Shuning uchun ham Turkiston xalqlari hayotida o‘troq, yarim o‘troq va ko‘chmanchilik turmush tarzi yonma-yon, bir-biriga g‘oyatda bog‘liq ravishda mavjud bo‘lib kelgan. Xorazm, Zarafshon, Farg‘ona, Qashqadaryo, Surxondaryo voha va vodiylarida yashagan xalqlar ming yillar davomida asosan o‘troq hayot kechirib kelgan bo‘lsalar, atrofdagi cho‘lu biyobonlarda, tabiiy ravishda, ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchilar istiqomat qilgan. Shu bilan birga ko‘chmanchi muhitdan ham vaqti kelib qudratli siyosiy sulolalar etishib chiqqani ham ma‘lum. Bu, ayniqsa, qoraxoniylar sulolasi misolida ko‘zga yaqqol tashlanadi.

VIII asrda arablar tomonidan bosib olingan O‘rta Osiyo VIII-IX asrlarda ham turli amirliklarga va davlatlarga bo‘lingan holda xiroj to‘lab turardi. Ammo

xalifalik zaiflashib mahalliy hukmdorlar Markaziy hokimiyat boshqaruvini asta-sekin o'z qo'llariga olmoqda edilar.

Bunga eng avval Toxiriylar, keyinroq Somoniylar erishdilar. IX asrga kelib Somoniylar butun Movarounnahrni, X-asrlarda butun O'rta Osiyoni egallab oldi.

IX-XI asrlarda Movarounnahr, ayniqsa, uning vodiysi va Xorazm o'sha davrning eng rivojlangan o'lkasiga aylandi. Buxoro, Termiz, Shosh, Farg'ona, Samarqand qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikda, savdo-sotiqda mashxur bo'ldi.

Samarqand o'zining sifatli qog'ozi, Shosh o'zining ko'pchiligi bilan, Farg'ona o'zining mis, temir, qo'rg'oshin, kumush kabi yer osti boyliklari bilan mashhur bo'ldi.

Bu davrda Buyuk Ipak Yo'li orqali O'rta Osiyodan turli Mamlakatlarga charm, mato, ipak, jun, kiyim-kechaklar va ot chiqarilar edi. Katta yer egalari mamlakatda hukmron sinf edilar. Feodallar tomonidan dehqonlar va hunarmardlar qattiq ekspluatatsiya qilinar edi. Bunga qarshi xalq qo'zg'olonlari tobora kuchayib borardi.

X asr oxirida Qoraxoniylar davlati Sharqiy Turkistonda tashkil topadi. 999 yili ular Movarounnahrda hujum qilib, Buxoroni bosib oladi va Somoniylar sulolasi hokimiyatini tugatadi. Bu davrda G'aznada Mahmud G'aznaviy hukmronlik qilardi. 1001 yili Qoraxoniylar chegarasi Amudaryo bo'lib, qarshi qirg'ogi Mahmud G'aznaviy davlatida qoldi. Chetda qolgan Xorazmni Ma'mun boshqardi (999-1017 yillar). 1017 yili Xorazmni Mahmud G'aznaviy o'z tarkibiga qo'shib oladi. XI asrda Qoraxoniylar davlatini poytaxti O'zgandan Samarqandga ko'chadi.

Umuman IX-XI asrlarda O'rta Osiyo o'z taraqqiyotining ancha kuchli bosqichida bo'ldi.

X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning birinchi yarmi oraligida buyuk qoraxoniylar davlati nomi bilan tarixga kirgan davlat asos solgan qoraxoniylar taniqli, tilshunos olim Qozoqboy Maxmudovning fikricha, ular ham Alptakin

singari o`g`uz qabilasining qiniq urug`iga mansub bo`lganlar¹¹. X asrda yashagan arab geografi Ibn Havqalning bergan ma`lumotlariga qaraganda, islom dinini qabul qilgan mingga yaqin turk oilasi Sharqdan Forob, Kenjit va Shosh o`rtasidagi tumanga, ya`ni hozirgi Chimkentning janubi-g`arbiga ko`chib kelgan.

IX asrning oxiri va X asrning o`rtalarida Orol bo`yi va Kaspiy bo`yida O`g`uzlar ittifoqi shakllanadi. X asrda Sirdaryo etaklarida o`g`uzlar davlati tashkil topadi. Tashkil topgan davlatning poytaxti Yangikent deb ataladi.

XI asrning o`rtalarida bu davlat Sharqdan kelgan qipchoqlar tomonidan tormor qilinadi. O`g`uz qabilalarining bir qismi g`arbga, rus dashtlariga joylashgan. Boshqa qismi esa qoraxoniylar boshchiligida old Osiyo mamlakatlarini istilo qiladilar va hozirgi Turkmaniston yerlariga o`tadilar. Yozma ma`lumotlarga qaraganda, o`g`uzlarning islom dinini qabul qilib, yerli xalq bilan aralashib ketgan kismi turkmanlar deb atalgan. Mahmud Qoshg`ariy (XI asr), Rashididdin (XIII – XIV asr), Abulg`ozi (XVII asr) larning xabar berishicha uguzlar 22 yoki 24 qabiladan iborat bulgan. Bular: Chovdir, chandir, Emreli igdir, yazir, salir, qoradoshli, baet, koyi, tuturga va boshqalardir.

Xullas, iqtisodiy-siyosiy raqobat natijasida Saljuq o`z tarafdorlari bilan yuqorida tilga olingan Sirdaryoning o`rta oqimlarini tark etib, daryoning quyi oqimi chap qirg`og`ida joylashgan Jand viloyati yaqiniga kelib o`rnashadi¹². Bu voqea taxminan X asrning o`rtalarida sodir bo`lgan. Shu orada ular islom dinini qabul qiladilar. Ular xuddi shu asrda Movarounnahrni idora qilayotgan somoniylar, aniqrog`i so`nggi somoniylarni harbiy jihatdan qo`llab-quvvatlaganlar. Qoraxoniylarning Movarounnahr siyosiy hayotiga faol aralashuvi ayniqsa somoniylarning qoraxoniylar bilan raqobati yillari kuchaydi. Bu esa saljukiylar qaramog`idagi o`g`iz qavmlarining Samarqand, Buxoro, Kesh viloyatlariga borib o`rnashishlari uchun sharoit yaratdi. Ular o`z turmush tarzlariga ko`ra yaylovlar, dashtliklarda o`rnashganliklari tabiiy. Shahar va vohalarda esa, avvalgidek, o`troq turkiy aholi istiqomat qilavergan.

¹¹ Махмудов Қ. Туркий қавмлар тақдири // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1990, – № 12. – Б.20.

¹² Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент.: Шарқ, 2000. – Б. 124.

Qoraxoniylar davlati boshqa turk hoqonliklari qatori Islom tarixining hal qiluvchi pallasida tashkil topdi. Salibchilar Yaqin Sharqqa qarab yurish boshlashidan oldingi murakkab vaziyatda yaqindagina Islomni qabul qilgan turklar tashabbusni qo`lga olishga muvaffaq bo`lishdi. Ovrupo davlatlari bosqiniga qarshi tura olgan birdan-bir kuch ham aslida turklar edi. Ilk janglarda erishgan zafarlariga qaramay, salibchilar musulmon dunyosi bilan to`qnashuvni o`z foydalariga hal qilishga erisha olishmadi va bunda asosan Qoraxoniylar hamda ularning voliylari xizmati katta bo`ldi.

1.2. IX-XII asrlar O`rta Osiyo me`morchiligida aholi turar joylarining arxeologik yechimi

Turar joy – bu inson uchun birinchidan, boshpana bo`lsa, ikkinchidan, oila qo`nim topgan makon hisoblanadi. Oila esa jamiyatning, davlatning asosidir. Shunday ekan turar joylarni, ayniqsa shahar turar joylarini o`rganish orqali har bir tarixiy davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlar tarixini yaqindan bilish hamda unga aniqlik kiritish mumkin.

XXI asr boshlariga kelib, Samarqand va uning atrof hududlari misolida ilk o`rta asrlar turar joylarini o`rganish orqali shahar turar joylarini tadqiq etish metodikasini yaratishga harakat qilindi Ammo, bu shahar hududida mavjud bo`lgan IX-XIII asr boshlariga oid shahar turar joylari, asosan yo`l-yo`lakay va moddiy madaniyat qoldig`i sifatida qayd etilgan. Ma'lumki, VIII asr davomida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar shahar turar joylari ko`rinishini, ichki intererini o`zgarishiga olib keldi. Ushbu davrda shakllangan turar joylar ko`rinishlari bazi bir qo`shimchalar bilan so`ngi o`rta asrlargacha davom etdi.

Buni Afrosiyobda ochilgan turar joylar misolida ham ko`rish mumkin. V.L. Vyatkin qazishmalari natijasida o`rta asrlarga oid turar joylar ham ochilgan bo`lib, ular paxsa, xom g`isht va yog`ochdan qurilgan. Shu bilan birga u uy qurilishida

ganch va somon ishlatilganligini yozadi, yani, xonalarning ichi somon qo‘shilgan loy, bazida ganch bilan suvalganligini ta'kidlaydi¹³.

Keyinchalik, 1958 yilda Samarqand arxeologik ekspeditsiyasi tashkil etilib, uning oldiga shaharning paydo bo‘lishi, shakllanish va rivojlanishini aniqlashdek dolzarb muammo qo‘yiladi. Ushbu muammodan kelib chiqqan holda olimlar oldiga shahar fortifikatsiyasi, stratigrafiyasi, suv taminoti, hunarmandchiligi, obodonchiligi va shaharning atrofdagi qishloqlar bilan aloqalarini o‘rganish vazifasi qo‘yiladi Qazishmalar davomida IX-XIII asr boshlariga oid turar joy qoldiqlari ochiladi.

Xususan, Afrosiyobning g‘arbiy qismidagi mahallalardan birining qoldiqlari ochib o‘rganilishi natijasida hunarmandlar mahallasining uch asrlik hayoti haqida malumotlar qo‘lga kiritiladi. Bu yerda 5 ta qurilish davri aniqlangan bo‘lib, 1- qurilish davri (VIII asrning 80 yillari – IX asr boshlari) ancha yomon saqlangan. Afsuski, qazishma davrida va arxeologik materiallarni tahlil qilishda ko‘proq ishlab chiqarish bilan bog‘liq xonalarga katta e'tibor qaratilganligi uchun mahallaning turar joy bilan bog‘liq xonalari haqida ma'lumotlar kam.

1961-1962 yillarda Sh. Tashxodjayeov tomonidan Afrosiyob markazida, 3 – mudofa devori ichida olib borilgan qazishmalar natijasida kulollar mahallasi aniqlanadi. Keyinchalik, 1965-1966 yillarda qazishma ishlari L. G. Brusenko tomonidan, 1968-1971 yillarda Sh. Shorahimov tomonidan davom ettirilib, mahallaning umumiy qiyofasi tiklanadi. Qo‘lga kiritilgan materiallar asosida mahallaning 3 ta qurilish davri aniqlandi: 1- qurilish davri – VIII oxiri – IX asr; 2- qurilish davri – IX – asr oxiri – X asr boshi; 3- qurilish davri – X asr – XI asr 1-choragi. Mahallaning 3- qurilish davri yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, turar joy, xumdon va yordamchi xonalardan iborat 14 ta xo‘jalik aniqlanadi.

Xususan, 1- xo‘jalikdagi 1- xona turar joy vazifasini bajargan. Xona 6x3 m xajmda, paxsadan qurilgan bo‘lib, uning janubiy-sharqiy burchagida Cho‘ponota toshidan qurilgan tashnov joylashgan. Ikkinchi xo‘jalik mahallaning shimolida

¹³ Vyatkin V.L. Afrasiab – gorodishe belogo Samarkanda. Arxeologicheskiy ocherk. – Tashkent, 1927. –S. 116.

joylashib, oltita xona va hovlidan iborat. To'rtta xonadan (1, 2, 5, 6) ishlab chiqarish va xo'jalik maqsadlarida foydalanilgan bo'lsa, 3, 4-xonalar turar joy xarakteriga ega. 3 – xona 3,80x2 m hajmda bo'lib, uning g'arbiy qismida tashnov joylashgan. 4- xona 4x3,80 m hajmda bo'lib, 3- xonaning shimolida joylashgan.

1966-1970 yillarda Afrosiyobning janubiy sharqida amalga oshirilgan qazishmalar chog'ida IX-XII asrlarga oid 15 ta xona va ikki hovlidan iborat katta turar joy kompleksi qazib o'rganiladi. O'ziga to'q shaharlikka tegishli, deb hisoblangan ushbu turar joy ikki qurilish (IX-X; XI-XII asrlar) davriga oiddir. Sh.Tashxodjaevning fikricha, turar joy IX asr boshlarida qurilgan bo'lib, u VI-VII asrlarda qurilgan turar joy rejasini takrorlaydi. Yani, VI-VII asrlarda qurilgan turar joy vayronaga aylangach, malum muddat tashlab qo'yilgan va VIII asr oxiri – IX asr boshlarida qayta tiklangan. Oldingi davr bilan farq qiluvchi element tashnov hisoblanadi¹⁴.

Turar joy qurilishida, asosan, paxsa va xom g'isht (46,5-47x23,5-24x7-11,5 sm) foydalanilgan bo'lib, xonalar o'rtasidagi devorlar qalinligi 55-90 sm. ni tashkil etadi. Xona devorlari ganch bilan suvalib, ustidan qizil yoki ko'k rang bilan bezatilgan. II qurilish davrida (XI asr- ning ikkinchi yarmi – XII asr boshlari) turar joy qoldiqari yaxshi saqlanmagan bo'lib, xona devorlari sinchdan qurilganligi qayd qilinadi.

1967-1968 yillarda M. Jo'raqlov va Ya. Krikislar tomonidan Afrosiyobning g'arbiy qismida, Samarqnd – Aeroport yo'lidan 30 metr sharq tomonda olib borilgan qazishma natijasida ikki qurilish davriga oid (VIII asrning oxiri – IX asr; X-XI asrlar) 9 ta turar joy va ishlab chiqarish bilan bog'liq xonalar, yer osti xonasi va hovlidan iborat turar joy binosi qazib o'rganiladi. Dastlab, VIII asr- ning oxiri – IX asrlarda, yani, birinchi qurilish davrida bino oltita turar joy xonalaridan iborat bo'lib, xona devorlari paxsa bloklar qrilgan bo'lsa, hovli atrofini janubi–g'arbiy tomondan o'rab turgan devor esa 50x50 hjmtdagi bloklardan bunyod etilgan.

¹⁴ Tashxodjaev Sh.S. Samarkandskiy jiloy dom IX-X vv. // IMKU. Vip. 13. Tashkent, 1977. – S. 52.

Ikkinchi qurilish davrida (X-XI asrlar) uyning ichki tuzilishida o'zgarishlar ro'y berib, 2-xonada balandligi 35 sm, uzunligi 5,50 m, eni 70 sm bo'lgan supa quriladi.

Ikkinchi qurilish davrida esa, yani, X-XI asrlarda binoning turar joy bilan bog'liq maydoni qisqarib, 1, 2 va 4-xonalardan ishlab chiqrish maqadlarida foydalanila boshlanadi. Bundan tashqari kulolchilik ishlab chiqarishi bilan bog'liq yangi 7, 8, 9-xonalar qurilgan. Bu davrda faqatgina 3 va 6-xonalar turar joy vazifasini bajargan bo'lishi mumkin.

1960-yillarning oxirida ham bir qator turar joylar qazib o'rganilsada, qo'lga kiritilgan natijalarning aksariyati chop etilmagan. Xususan, 1967-1968 -yillarda Afrosiyobning g'arbiy qismidagi qazishmalar jarayonida ikkita uy aniqlangan bo'lib, ular haqda faqat umumiy ma'lumotlar berilgan. Ya'ni, birinchi uy paxsadan qurilgan beshta turar joy va xo'jalik xonalaridan hamda zargarlik ustaxonasidan iborat bo'lib, xona devorlari ganch bilan suvalgan. Ayrim xonalar devorlari qizil va ko'k rang bilan ham bo'yalgan. Ikkinchi uyda mehmonxonaning poliga pishiq g'isht qoplangan bo'lib, devorida ganch bezaklari va ko'k rang ishlatilgan. Keyingi yillarda O'zbek-Fransiya qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan Afrosiyobning birinchi devori ichida, qal'a yonida XII asrning ikkinchi yarmiga mansub Qoraxoniylar saroyi ochilgan. Xususan, olib borilgan qazishmalar natijasida bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir nechta hovlilar aniqlangan, ularning har biri turar joy va xo'jalik xonalaridan iborat bo'lgan. Turar joylar asosan sinchdan bunyod etilgan Yuqoridagi mavjud ma'lumotlarni umumlashtiradigan bo'lsak, IX-X asrlarda turar joylar, asosan, paxsa, xom g'ishtdan bunyod etilgan.

IX-X asrlarda hovlilar uyning yoni yoki old tomonida joylashgan. VIII asr oxiri – IX asr boshlaridan boshlab xo'jalik maqadlarida, yani, omborxonada sifatida yer osti xonalari qurila boshlanadi.

X asrdan boshlab o'tgan asrdan farqli ravishda turar joylar xarakterida malum bir o'zgarishlar kuzatiladi. Yani, VIII asr oxiri-IX asrda asosan turar joy vazifasini bajargan xonalarlarning aksariyati X asrga kelib ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun ajratila boshlaydilar. Xususan, M. Jo'raqulov va Ya. Krikis

tomonidan o'rganilgan uy birinchi qurilish davrida 6 ta turar joy xonasidan iborat bo'lgan bo'lsa, ikkinchi qurilish davri da (X-XI asrlar) binoning turar joy bilan bog'liq maydoni qisqarib, faqatgina 3 va 6- xonalar turar joy vazifasini bajarganlar.

Qolgan xonalar kulolchilik bilan bog'liq ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanila boshlaganlar. Birinchi va ikkinchi qurilish davrlarida mahalla, asosan turar joy binolaridan iborat bo'lsa, uchinchi qurilish davrida (X asr—XI asr 1-choragi) bu yerda 14 ta xo'jalikdan iborat kulollar mahallasi shakllanadi. Har bir xo'jalikda faqatgina bir ikkita xona turar joy vazifasini bajarib, qo'lgan xonalar ishlab chiqarish uchun ajratilgan. Bunday holatda ikkita xona bir vaqtning o'zida oshxona, yotoqxona, mehmonxona kabi vazifalarni bajargan.

X asrdagi turar joylari xarakteridagi bunday o'zgarish O'rta Osiyoda markazlashgan davlat Somoniylar davlatining tashkil topishi, shaharlarda hunarmandchilikning yanada rivojlanishi bilan bog'liq. Shu davrdan boshlab shahar aholisining asosiy qismini tashkil etgan hunarmandlar davlatning iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'rin egallay boshlaydi. Shahriston avvalgidek hunarmandlar makoni sifatida o'z faoliyatini davom ettiradi. XI-XII asrlarda shahar me'morchiligida, jumladan, turar-joylar qurilish madaniyatida ma'lum o'zgarishlar ro'y beradi. Bu davrda paxsa va xom g'isht bilan bir qatorda yog'och (sinch) keng qo'llanila boshlanadi, yani, sinch uylar paydo bo'ladi. Sinchning qo'llanilishi xonalarni bo'lib turuvchi devorlarni qalinligini yupqalashishiga, ya'ni, 25-30 sm bo'lishiga olib keldi. N.I.Krashennikova va Sh.Pidaevlarning fikrlaricha, sinchli uylar shaharning janubiy-g'arbiy qismlarida keng tarqalib, ular asosan aholining kam ta'minlangan qatlamiga tegishli bo'lgan¹⁵.

Ammo, bu davrda hatto saroylar ham sinch uslubida qurila boshlaganlar. Masalan, Afrosiyob arkingning sharqiy qismida qoraxoniylar hukmdori Usmon saroyi (XII asrning 2-yarmi) sinch uslubida qurilgan¹⁶. Ayni paytda bu davrda uylar ichki va tashqi hovliga bo'linib, xonalar ularning atrofida shakllanadilar.

¹⁵ Pidayev Sh.R. Severnie predeli Shaxizindinskogo kladbisha // K istoricheskoy topografii drevnego i srednevekovogo Samarkanda. Tashkent, 1981. – S. 46.

¹⁶ Krayev Yu.V. Otkritie karaxanidskoy nastennoy jivopisi v Samarkande // Vestnik istorii literatury i iskusstva. T. VI. M., 2009. – S. 24.

O.G.Bolshakov tarixiy manbalar asosida XI-XII asrlar shahrlarida aksariyat uylar ikki qavatli bo‘lib, yog‘ochdan qurilgan, ikkinchi qavatni ko‘chaga bo‘rtib chiqqan, bu davrga kelib pandus o‘rnini yog‘och zinalar egallaydi degan fikrni bildiradi¹⁷. Bunga, asosan, qurilishda yog‘ochning keng qo‘llanilishi sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak. Zero, XI asr o‘rtalariga oid vaqf hujjatida uy tarkibiga kiruvchi, yashash va foydalanish uchun kerak bo‘lgan jihozlarning ichida zanjir, mix, buyumlar, kul va o‘tin saqlanadigan ombor, tashnovlar bilan bir qatorda zinapoyalarning ham qayd etilishi yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

Yuqorida keltirilgan materiallardan ko‘rinib turibdiki, Afrosiyob hududida IX-XIII asr boshlariga oid shahar turar joylari, asosan, yo‘l-yo‘lakay va moddiy madaniyat qoldig‘i sifatida o‘rganilgan. Turar-joylarning shahar infrastrukturasida tutgan o‘rni, ularning qurilishida mahalliy an‘analar, innovatsion yangiliklar va integratsiya muammolari maxsus o‘rganilmagan.

X – XII asrlarda Sharqda ilm-fan va madaniyat-ning yuksak darajada ravnaq topganligi ayni chog‘da boshqa sohalarda, xususan, me‘morchilik hamda tasviriy san’atda ham o‘z ifodasini topdi. Bunda ko‘p jihatdan bu davrda o‘lka hududlarida hukm surgan tinchlik, osoyishtalikning sharofati ham katta bo‘ldi. Shu davrda mahalliy hukmdorlarning sa’y-harakatlari tufayli shaharlarda noyob tarixiy obidalar, hashamatli binolar, ilmiy-madaniy maskanlar, kutubxonalar, masjid-u madrasalar qad ko‘tardi.

Ayniqsa, xalq ichidan chiqqan mahalliy ustalar, naqqoshlar, kulollar, zargarlar tomonidan yurt dovrug‘ini olamga tanitgan, ajoyib me‘morchilik obidalari, tasviriy san’at namunalari yaratildi. Bu davr shaharsozligida xom g‘ishtlar va paxsalardan keng foydalanilgan. Ularni shinamligi va ko‘rinishini yanada ko‘rkamlashtirishda ohakli qorishmalar ishlatilib, gajakdor qilib ishlov berilgan. Qurilgan ayrim masjidning mehroblari esa silliqlangan g‘ishtlar, o‘yma ganjlar va hatto tilla suvlari bilan ham bezatilgan. Har bir shahar markazlarida kitob do‘konlari, madaniy mollar bo‘lishiga alohida e’tibor berilgan.

¹⁷ Bolshakov O.G. Gorod v konse VIII – nach. XIII v. // Srednevekovoy gorod Sredney Azii. – L., 1973. – S. 142.

Oʻrta Osiyo Uygʻonish davrining yirik meʼmoriy obidalari sirasiga Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi (X asr), Samarqand yaqinidagi Tim qishlogʻidagi Arab ota maqbarasi (977-978), Uzun (Surxondaryo) tumanidagi Xoʻja Naxshron maqbarasi (IX-X asr), Namozgoh, Marvdagi Sulton Sanjar (XI asr), Oʻzgandagi qoraxoniylar maqbarasi, Gʻazna yaqinidagi marmar qotishmalardan tiklangan gʻaznaviylar yozgi saroyi, Buxorodagi Minorayi Kalon (1127), Vobkent minorasi (1192), Jarqoʻrgʻon minoralari va boshqa koʻrkam meʼmorchilik inshootlarini nisbat berish mumkin. Bu davrda meʼmoriy binolardan tashqari yoʻnilgan gʻisht va suvga chidamli qurilish qorishmalaridan turli-xil oʻlchamli, gʻoyat puxta ishlangan inshootlar, suv omborlari – bandlar, novlar, koʻpriklar, sardobalar va korizlar qurilgan.

X asrdan boshlab binokorlikda sinchli imoratlar qurilishi keng tarqalgan. Yakkasinch va qoʻshsinchli binolar asosan yogʻochlarni payvandlash uslubida qurilib, sinchlarning orasi xom gʻisht yoki guvalalar bilan urib chiqilib, somon loylar yoki qumli loylar bilan suvalgan. Bunday qurilma imoratlar XII asrda ham shahar meʼmorchiligida asosiy oʻrinni egallagan hamda zilzila silkinishlariga oʻta chidamli boʻlgan. Ajdodlarimizning Uygʻonish davri meʼmorchiligi sohasidagi bunyodkorliklari bugunga qadar ham saqlanib qolingan. Ushbu tarixiy maʼlumotlarni olimlarimiz Afrosiyob, Varaxsha, Buxoro, Poykand va boshqa shaharlar xarobalari misolida ham tadqiq etadilar.

Sharqiy oʻlkalarda IX-XII asrlarda meʼmorchilik bilan birga tasviriy sanʼat, naqqoshlik, sopol ishlash va ganch sanʼati ham ancha rivoj topib borgan. Imoratlarni oʻymakor ustun va toʻsinlar bilan, devorlarni esa boʻyoqli yoki ganchkorlik naqshlari bilan bezash keng tarqalgan. Bunga misol qilib, Zarafshonning yuqori oqimidagi Oburdum degan manzilda X asrda barpo etilgan naqshinkor bino namunasini koʻrsatish mumkin. Inshootda oʻziga xos yangilik, goʻzallik, yaʼni mahalliy anʼana, badiiy shakl koʻzga yaqqol tashlanadi.

Shuningdek, XI-XII asrlarga tegishli Samarqand bilan Buxoro oraligʻida bunyod etilgan Roboti Malik karvonsaroyi peshtoqiga ishlangan ganch

o‘ymakorligi ham tahsinga loyiqdir. Naqqoshlik san‘atining taraqqiyoti o‘z navbatida kulolchilik, miskarlik va zargarlikning rivojlanishiga ham turtki bo‘ldi. Samarqand, Buxoro, Toshkent va boshqa shaharlar ushbu sohalarda rivoj topgan markazga aylandi. Bu davrda ishlangan sopol buyumlar nihoyatda chidamli bo‘lib, shahar va qishloq aholisining kundalik hayotiga kirib borgan, shuningdek, bu mahsulotlar chet mamlakatlariga ham chiqarilgan. Kulolchilik mahsulotlarini tayyorlash jarayoni esa butun boshli ishlab chiqarish jarayonlarini o‘ziga qamrab olgan.

Shu bilan birga, bu davrda kumush, mis, bronzadan naqshinkor badiiy san‘at buyumlari, chiroyli va bejirim idish-tovoqlar, qadahlar yasash ham rasm bo‘lgan va ularning ko‘rinishlari san‘atkorona tarzda ustamonlik bilan bezatilgan. Bu sohada Samarqand, Farg‘ona, Toshkent, Xorazm, Naxshob, Kesh shaharlarining o‘ziga xos maxsus maktablari faoliyat ko‘rsatgan. Bunday jarayonlarning rivojlanishi xattotlik san‘atining ham keng yoyilishiga bois bo‘ldi. Hali kitob bosish kashf etilmaganligi, qo‘lyozma kitoblardan nusxalar hattotlar tomonidan qo‘lda ko‘chirilishi sabab xattotlik san‘ati ancha rivoj topdi. Usta xattotlar va husnixat egalari o‘z san‘atlarini kitoblar bezash, masjid, madrasa, xonaqolarning peshtoqlari, gumbazlari, eshiklari va devor ustunlariga har xil oyatlar yozish, saroylarda xonlar, amirlar, sultonlar va hokimlar sha‘-niga madhiyalar bitish kabi ishlarda namoyon etganlar, ularning mehnatlari esa juda qadrlangan.

Shu narsa diqqatga sazovorki, Uyg‘onish davriga xos me‘morchilik va unda ishlangan me‘moriy naqsh uslublari o‘z navbatida ajdodlarimizning hayotda ijodkor va bunyodkor bo‘lganligini to‘la tasdiq etadi. Ularning yaratgan noyob ishlari san‘at asarining durdonalari si-fatida hozirga qadar ham ajdod-u avlodlar e‘zozu hurmatiga sazovor bo‘lib kelmoqda.

IX-XI asrlarda Buxoro, Termiz, Urganch kabi shaharlarda hunarmandchilik san‘ati yaxshi rivojlandi. Yirik shaharlarda chilangarlik va misgarlik rivoj topdi. Qozon, g‘alladon, bargash, ko‘za, jom, qadah, obdasta, shamdon, pardozlik buyumlar, zebu-ziynatlar yuksak mahorat bilan ishlandi. Kulolchilik, kashtachilik,

shisha idish tayyorlash, sopolga sir berish ixtiro qilindi. Sopol idishlarga gul, barg, sharcha, naqsh, baliq, qush kabilarning tasviri ishlanadigan bo'ldi.

Memorchilik san'ati yangi an'analar bilan boyidi. Bu davrda ko'plab masjid, madrasa, maqbara, minoralar qurildi. Me'morchilikda ko'proq pishgan g'isht, yo'nilgan tosh bilan qurildi. Binolarni bezashda o'yama terrekota, sirlangan g'isht va koshinlardan foydalanildi. Ichki intererlari ganch o'ymakorligi, bo'yama naqshlar, arab-kufiy nasx yozuvlari tasviridan foydalanilgan holda bezatildi.

X asrdan boshlab, saroylar qurilishi shahar ichkarisida olib borildi. IX-XI asrlarda me'morchilik bilan uyg'unlashgan holda naqqoshlik san'ati avj oldi. Uning turli xillari, uslublari, kompozitsiya va elementlari vujudga keldi. Bu davrda me'morchilikni nazariy asoslari ham rivojlandi. Abu Rayhon Beruniy me'morchilik haqida ilmiy asar yozdi. Bu asar «Kitob al-xiyal ar-ruxoniyya va-l asror at-tabiyya fi daqiqoq al-ashkal al-xandasiyya» nomi bilan yuritilib, u 10 kitobdan iborat edi. Bu asar Beruniy zamonidan bugungi kungacha me'morchilikni asosiy qonuniyati bo'lib keladi.

IX-XI asrlarda O'rta Osiyoda Somoniylar saroyi, «Mirsaid Bahrom maqbarasi», «Qirqqiz saroyi», «Arobata maqbara», «Sulton saodat», memorchilik ansambli, Rabotu Malik kompleksi, Ismoiy Somoniy maqbarasi, Termiz shohlar saroyi, Afrosiyob saroylari, o'nlab juma masjidlari va madrasalari qurildi. Xullas, O'rta Osiyo me'morchiligi o'zining uzoq va katta tarixiga ega bo'lib, bu IX-XI asrlarda yanada rivoj topdi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, XII-XIII asrlarda O'rta Osiyoda Xorazmshox o'z hukmronligini to'la o'rnatib olgan edi.

O'rta Osiyoda arab xalifaligi tugatilgach o'zining iqtisodiy, siyosiy mavqeini ancha tiklab oldi. Buxoro, Samarqand, Termiz, Urganch shaharlarida me'morchilik, amaliy san'at, rangtasvir ancha yaxshi rivojlandi. Samarqand va Buxoroda qog'oz ishlab chiqarilgach, kitob san'ati ravnaq topdi. Bu o'z o'rnida kitoblarni bezatish, ularga miniatyura tasvirlarini kiritish bilan bu san'atni rivojlanishiga imkon yaratildi. Masjid, madrasa, maqbaralar, saroylar qurilishi avj oldi. Binolarni bezatishda ganch, yog'och o'ymakorligi rivojlandi. Rangli naqshlar

va bezakli tasvirlar ishlana boshladi. Oʻrta Osiyoda hunarmardchilikni koʻplab sohalari rivojlandi. Savdo-sotiq oʻsib bordi. Xalqaro bozorlar koʻpaydi. Natijada davlatlar oʻrtasida madaniy aloqalar kuchaydi. Oʻrta Osiyo – Movarounnahr Osiyo bilan Yevropani bozor va madaniy aloqalarni bogʻlab turishda asosiy yoʻl boʻlib qoldi. XIII asr boshida Xorazm sharqda san'ati, madaniyati va me'morchiligi rivojlangan iqtisodiy va siyosiy jihatdan qudratli, katta harbiy qoʻshinga ega boʻlgan davlat boʻlib qoldi. Bu davlatga Muxammad Xorazmshox xukmronlik kildirdi.

XII-XIII asrlarda moʻgʻulistonda Chingizxon (asl ismi Temuchin) boshchiligida davlat barpo etildi. Xorazmshox bilan Chingizxon oʻrtasida savdo-sotiq yoʻlga qoʻyilib, elchilar almashib turdi. Ammo Chingiz oʻz territoriyasini kengaytirish rejalarini tuzmoqda edi. Chingiz karvonini Oʻror hokimi tomonidan talanishi Chingizxon uchun bahona boʻladi va 1220 yildan Chingizxonning lashkarlari Oʻrta Osiyoga bostirib kela boshladi. Chingizxon Oʻrta Osiyoda talash, oʻt qoʻyish, qirish taktikasini qoʻlladi va 1221 yili butun Oʻrta Osiyoni egallab oldi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, IX-XIII asr boshlariga oid Afrosiyob turar joylariga oid shu vaqtga qadar qoʻlga kiritilgan materiallarni umumlashtirish, arxeologik, etnografik va tarixiy nuqtai nazardan tadqiq va tahlil qilish juda muhim ilmiy ahamiyati kasb etadi. Zero, bunday yondashuv nafaqat turar joylar arxitekturasi, ichki strukturasi, qurilish materiallari balki, uning ichki jihozlari va ular bilan bogʻliq boʻlgan rasm-rusumlar, urf-odatlar, diniy eʼtiqodlar borasida ham yangi maʼlumotlarni qoʻlga kiritish imkonini beradi. Bu esa oʻz navbatida IX-X va XI-XII asrlarda roʻy bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlarning turar joy madaniyatiga, unda istiqomat qilgan insonlarning dunyoqarashlariga koʻrsatgan taʼsirini oʻrganish imkonini beradi.

II BOB. MUSULMON UYG`ONISHI DAVRI O`RTA OSIYO ME`MORIY YODGORLIKLARI

2.1. Minoralar arxitekturaviy usuli. Saroy va maqbaralar qurilishi

Minorai kalon (Katta minora), Arslonxon minorasi – Buxorodagi me`moriy yodgorlik. Muxandis va me`mor Baqo loyihasi asosida Arslonxon qurdirgan (1127). Minorai kalonning o`rnida avval ham minora bo`lgan, u qulab tushgach, hozirgisi mustahkam qilib qayta qurilgan. Poydevori tosh va maxsus qir qorishmasidan terilgan. Yer sathidan 9 m chuqur, balandligi. 50,0 m, kursisi qirrador, tanasi g`o`lasimon, tepasi gumbazli davra qafasa ko`shk bilan bog`langan. Minora yuqoriga ingichkalashib boradi va muqarnas bilan tugaydi. Qafasasidagi 16 ravoqli darchalar orqali atrofni kuzatish mumkin. Tepaga minora ichidagi 104 pilpoya aylanma zina orqali chiqiladi. Masjidi kalon tomonidan minoraga o`tiladigan ko`prikcha bo`lgan. Minorai kalonning o`zagi ham, bezagi ham chorsi g`isht (27x27x4x5 sm) ganchxok loyida terilgan. Bezak gishti o`rniga qarab turli shaklda, sirti silliq pardozlangan. Ustma-ust joylashgan turli xil handasiy shakldagi bejirim bezakli halqalari g`ishtin dandanalar bilan hoshiyalangan. Bezaklar orasida tarixiy va diniy mazmundagi kufiy yozuvlar uchraydi. Muqarnas ostidagi moviy rang sirkor halqalarning har biri turli xil handasiy shaklda bezatilgan (keyinchalik to`kilib ketgan). Minorai Kalon shu turdagi qadimiy inshootlar orasida alohida o`rin tutadi. Shakllarning o`zaro monandligi va mutanosibligi. Handasiy uyg`unlik, ajoyib ko`rk va mahobatlilik Minorai Kalonga chinakam go`zallik bag`ishlaydi. Tanasi va muqarnaslari ta`mir etilgan (1924). Yer ostidagi asosi (kursisi) usta Ochil Bobomurodov tomonidan ochib ta`mirlangan (1960). Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan Minorai Kalonda ta`mirlash ishlari olib borildi (1997). Minorai Kalon Buxoro shahrining noyob va ko`hna yodgorlikdari qatoridan markaziy o`rin egallagan.

1127 yilda mashhur me`mor usta Baqo tarxi bo`yicha qurilgan Buxorodagi Minorai Kalonning balandligi 47, 5 m. bo`lib, qariyb 900 yildirki, ko`kka mag`rur bo`y cho`zib turibdi.

Minorai Kalonning bugungi kunimizgacha yaxshi saqlanib qolinishining sabablari haqida buxorolik mohir usta, ikkinchi darajali O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti sohibi Olim Abdiyev shunday deydi: «Buning siri minoraning poydevorida. U juda mustahkam bo‘lib, yer sathidan o‘n metr chuqurlikda joylashgan. Manbalarda qayd etilishicha, usta Baqo minora poydevorini tiklab bo‘lgach, bir yil mobaynida uni sinovdan o‘tkazadi. Mustahkamligiga ishonch hosil qilganidan so‘nggina, inshootning qolgan qismini bunyod etishga kirishadi»¹⁸.

Darhaqiqat, oddiy pishiq g‘isht va ganchdan qurilgan Minorai Kalon o‘z davri me‘morchiligining noyob durdonalaridan biridir. Mo‘jizakor me‘moriy yechim, sakkiz qirrali yulduzlar zanjiri, kufiy xatlar, jimjimador yozuvlar kishini hayratga solmay qo‘ymaydi. Minora asosining diametri taxminan 9 metr, unga balandligi har biri 50 sm. gacha bo‘lgan 105 ta zina orqali chiqiladi. Binoning tepa qismi bosh kiyimga o‘xshaydi. Uni xalq orasida 16 ravoqli fonus ham deyishadi. Bu go‘zal inshootning atrofida Masjidi Kalon va Mir Arab madrasasi joylashgan. Minora ichkarisiga aynan Masjidi Kalon orqali kirilgan. Minorai Kalon o‘z davrida bir qator muhim vazifalarni bajargan. U qadimda savdo karvonlari va sayyohlar uchun mayoq, soqchilarning shaharni nazorat qilishi uchun kuzatuv joyi bo‘lib xizmat qilgan.

Shaharning yana bir osmono‘par, mahobatli me‘moriy obidasi Chor Minordir. U Buxoroning shimoli-sharqiy qismi – Labihovuzning ortida joylashgan. 1807 yil Xalif Niyozqul tomonidan qurilgan ushbu madrasaning bizgacha faqat eshik va darvoza qismlari saqlanib qolgandi. Ulkan me‘moriy majmua sifatida loyihalashtirilgan Chor Minorning ayvoni masjidga o‘xshatib qurilgan va yonida ko‘m-ko‘k gumbazli to‘rt minora joy olgan. Har bir minora moviy va zangori g‘ishtin koshin bilan bezatilgan.

Buxoroda Qoraxoniylar va undan keyingi davrlarda o‘n beshdan ziyod qadimiy minoralar qurilgan. Mustaqillik yillarida ma‘naviy merosimizni asrashga juda katta e‘tibor qaratilmoqda. Birgina Buxoroning o‘zida o‘tgan asr zilzilalaridan

¹⁸ Minorai Kalon // www.GolosUzbekistana.com.

talafot koʻrgan Boloi Hovuz, Govkushon, Chor Minor kabi tarixiy obidalar hamda Gʻijduvonda Mirzo Ulugʻbek tomonidan qurilgan minora qaytadan taʼmirlandi¹⁹.

1127 yil Qoraxoniylar davlati amiri Arslonxon tomonidan qurilgan boʻlib, pishiq gʻishtdan naqshdor shakllar uslubida ishlangan. Balandligi 50 metr, aylanma eni 9 metr. Minoraning salla shaklidagi yuqori qismi gʻisht oʻymakorligi bilan bezatilib, karniz holiga keltirilgan. Oʻqsimon tirgak oʻrtasida Arslonxonning nomi hamda binokor ustaning ismi Baqo bitilgan. Minora ichida gʻishtin aylanma zinapoya boʻlib, mezanaga olib chiqadi. Minora azon chaqirish uchun masjid va madrasalar yonida yoki ularga tutash qilib qurilgan. Minorai Kalon mezasining qubbasi va devorlari muazzin ovozini yanada kuchaytirib berishga xizmat qilgan.

Vobkent minorasi – Buxoro viloyati Vobkent shahridagi meʼmoriy yodgorlik (XII asr). Oʻn ikki qirrali supa asosga oʻrnatilgan gʻoʻla (quyi qismining diametri 6,19 m, yuqori qisminiki – 2,81 m) shaklida rangdor, pishiq gʻishtlardan qurilgan. Bir paytlar yonida mavjud boʻlgan masjid tomonidan kirib, yuqoriga aylanma zinapoya orqali chiqilgan. Boʻrtma naqshli 10 belbogʻ bilan qismlarga ajratilgan, har bir qismi bir-biriga oʻxshamaydigan qilib gʻisht terib naqshlangan, quyisidagi naqshlar orasida qurilgan yili va qurdirgan shaxs (Sadr Burhoniddin Abdulaziz II) ning nomi kufiy uslubida yozilgan. Minoraning uchi kengaytirilib, qafasa ishlangan (diametri 3,66 m), gʻisht terib ishlangan 10 ravoq orasida 10 darcha hosil qilingan, darchalarning quyisi gʻisht panjara bilan toʻsilgan. Minoraning tashqi koʻrinishi koʻp jihatdan Minorai kalonga oʻxshaydi, lekin muqarnaslari ancha sodda. Minora supasi tuproq ostida qolgan, qurilgan paytida uning bal. 2,3 m boʻlganini arxeologik tadqiqotlar koʻrsatadi. Minoraning umumiy balandligi esa 40,3 m²⁰.

Qoraxoniylar oʻz tobeligida boʻlgan yurtlarda fan va madaniyat taraqqiyoti uchun barcha shart-sharoitni yaratib berishga intilganlar. Qoraxoniylar xonadoniga mansub oliy hukmdormi, shahzodami yo malikami, hammalari mamlakatdagi biron-bir shaharda bir yo bir nechta madrasa qurishni oʻz vazifalari, deb bilganlar.

¹⁹ Usmonov Q., Sodiqov M. Madaniyatshunoslik. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent.: Iqtisod-Moliya, 2008. – B. 26.

²⁰ Vobkent minorasi // www.vikipediya.uz.

Vazirlar, amirlar, mahalliy hokimlar ham oʻrnak olib ish tutganlar. Chunonchi, tilga olganimiz mashhur vazir Nizomul mulk oʻz davrida koʻplab madrasalar qurdirgan. Har bir madrasada oʻnlab, yuzlab ilm toliblari ham diniy, ham dunyoviy sohalarda bilim olganlar. Madrasalarda ham tabiiy-aniq fanlar ham ijtimoiy-diniy bilimlardan tahsil olingan. Oʻquvchilarga oylik nafaqa berib borilib, joy bilan ham taʼminlangan, ularni oʻz davrlarining yetuk olimlari oʻqitganlar, ilm toliblarining ixtiyorida koʻp ming jilddan iborat kutubxonalar boʻlgan. Baʼzi bir madrasalarda oʻquvchilar soni minglab boʻlganini bilamiz. Masalan, Nizomul mulk tomonidan asos solingan Nizomiya madrasalaridan birida olti ming nafar talaba yashab, taʼlim olgani maʼlum.

Oʻrta Osiyodagi qirrali yagona minora – Jarqoʻrgʻon minorasi. U Oʻrta asrlardagi Charmangan qishlogʻi hududida memor Ali ibn Muhammad Sarahsiy tomonidan 1109 yilda qurilgan. Bir mahallar ikki oshiyonali boʻlgan bu minoraning quyi oshiyonasi hozir ham yaxshi saqlanib qolgan. Uning tanasi bir-biriga tutashgan yarimdoira tarzidagi 16 qirra bilan bezatilgan. Mahorat bilan archasimon terilgan qirralar quyida bir-biridan bir muncha koʻchib, yuqoriga koʻtarilgan sayin bir-biriga yaqinlashib boradi. 20 metr balandlikda ular gorizontall epigrafik belbogʻ bilan tutashgan. Bu yerda qurʼoniy lavh tugamagan, binobarin, minora tanasining saqlanib qolmagan qismida epigrafik naqshli yana bir belbogʻ boʻlgan. Minoraning 21,6 metrli qismi saqlanib qolgan. Quyi diametri 5,4 metr, yuqorisi 4,1 metr. Minora gʻishti gʻoyat puhtalik bilan naqshinkor terilgani va umuman uning nafis badiiy qiyofasi kishini hayratga soladi. Jarqoʻrgʻon minorasi memoriy-badiiy yechimiga koʻra Shimoliy Hindiston va Xuroson minoralariga yaqin turadi.

Jarqoʻrgʻon minorasida aylanma zina boʻlib, muazzin turishiga moʻljallangan maydoncha – qafasga olib chiqqan. Bu maydoncha dastavval tahminan 16-18 metr balandlikda boʻlgan. Tanasining gʻishtin yuzasi burtma epigrafik bezakdan iborat boʻlgan toʻrtta belbor bilan bezatilgan. Belboglar gʻisht juft-juft terilgan minoraning yuzasida ajralib koʻrinib turadi. Bu monumental hattotlikning ilk variantlari boʻlib, taroshlangan gʻishtlardan terilgan kufiy lavhalar

sodda va birmuncha handasaviy hususiyatga ega edi. Minora belborlaridan birida u bunyod etilgan sana – hijriy 423 yilni o`qishga muvaffaq bo`lindi (bu milodiy 1032 yilga muvofiq keladi).

Sharqda madrasalar tipdagi bino dastavval Narshahiyning «Buxoro tarixi» kitobida tilga olingan. Unda Buxorodagi 937 yilda yonib ketgan Farjak madrasasi haqida gap boradi. Ulug`bek tomonidan Buxoro, Samarqand va G`ijduvonda barpo etilgan uchta madrasa O`rta Osiyoda saqlanib qolgan ko`plab madrasalardan eng qadimiylaridir. Termizda mavjud bo`lgan madrasalarning ilk klassik namunalari, afsuski, saqlanib qolmagan, shu bois ular haqida biron-bir ma`lumotga yo`q. Biroq Denovdagi XVI -XVII asrlarga oid Sayd Otaliq madrasasi arxitekturasiga qarab Termizda klassik madrasa bunyod etish an`analari haqida hukm yuritish mumkin. Pishiq g`ishtdan ko`tarilgan bu monumental inshoot o`sha davrda yetakchi bo`lgan Buxoro memorlik maktabi an`analarining kuchli ta`siri ostida bunyod etilgan. Tarxi to`g`ri burchakli, ikki oshyonali bu binoda chor atrofi hujralar hamda o`rtasida to`rtta ustunli ayvon bilan qurshalgan hovli bo`lgan. Bu yerda nodir va asosan Buxoro madrasalariga xos usul qo`llangan – bino yon taraflaridan tashqariga qaragan ravoqli peshayvonlar qurilgan²¹.

Termiz yaqinida 1955 yilda V.A. Nil'son tomonidan tadqiq etilgan, xom g`ishtdan sodda qurilgan ikki madrasa XVIII – XIX asrlarga oiddir. Ularda ancha keng, ba`zan o`rtasida hovuz bo`lgan hovli atrofida (uning chor atrofini to`la band etmagai holda) tarxi murabbaga yaqin bo`lgan, usti balx usulida yopilgan hujralar joylashgan. Hovlining g`arbida esa tarzi yoyilgan, uch qismdan iborat masjid bo`lgan. Tarxiga ko`ra bu xonalar – masjid va madrasa hujralaridan iborat sufiylar majmui bo`lgan. Bunday majmualar XVII – XIX asrlarda O`rta Osiyoda keng tarqalgan. Masalan, Buxorodagi nisbatan monumental konstruksiya bo`yicha qurilgan xalifa Niyozqul va xalifa Xudoydod xonaqohi majmualari shu kabidir. Surxondaryoning so`l sohilidagi Hoja Mulki qishlog`idagi madrasali bir qavatli katta majmua ancha yirik bo`lsa-da, memoriy jihatdan soddaroqdir. O`rtasida hovuzi bo`lgan soya-salqin chorsi hovli chor atrofida qirqqa yaqin hujra bor.

²¹ Termiz tarixi // www.narod.uz.

Hovlining janubi-g'arbiy burchagida uchta keng-katta hujra bo'lib, aftidan, darsxona bo'lgan. Hovlining g'arb tomonida hom g'ishtdan ko'tarilgan, shifti vassa juftli bir hadli masjid va hom gishtdan minbar bo'lgan. Tomonlari 3,5 metrli, balhi gumbaz bilan yopilgan hujralar devorida uchli ravoqli tokchalar bo'lib, ularga kitob taxlangan va ro'zg'or bo'yumlari terib qo'yilgan. Shuningdek, ko'pchilik hujralarda kiraverishda ung burchakda o'choq bo'lgan. Termizdan shimoli-sharqda joylashgan Solilobod qishlog'idagi madrasa (hozir yo'k bo'lib ketgan) yuqorida tilga olingan madrasadan chorroq bo'lgan, biroq, ancha puxta ishlangan va qator bezaklari bo'lgan. Madrasa hovlisiga ikki tomonida guldasta minora bo'lgan darvozaxona orqali kirilgan, Hujralarda kitob va ro'zg'or buyumlarini qo'yish uchun uchli ravoqli tokchalar, shuningdek shimoliy burchakda devorning tashkarisida mo'rkoni bo'lgan yarim doira tokchasimon o'choq bo'lgan.

Ilmu ma'rifatga bo'lgan an'anaviy jiddiy e'tibor qoraxoniylar davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi va buni yuqorida ta'kidlangan o'nlab madrasalarning barpo qilinishi orqali ham bilib olishimiz mumkin. Ahvol haqiqatan ham shunday bo'lganini o'sha zamonda yashagan buyuk olimlar, shoirlar faoliyati ham tasdiqlaydi. Bahoviddin Abubakr Marvaziy, SHarafiddin Tusiy, Abulhasan Ali Marvaziy, Umar Xayyom, Muzafar Isfizoriy, Zahiriddin G'aznaviy kabi handasachilar, yulduzshunoslar, riyoziyotchilar, Muhammad Iloqiy, sayyid Ismoil Jurjoniy, Faxriddin Roziy kabi tabiblar, kimyogarlari, Mu'iziy, Anvari, Sobir Termiziy, Asiriddin Axsikatiy, Raf'iy Marvaziy kabi yirik shoirlar shular jumlasidandir. Odatdagidek, ular o'z zamonlarining barcha ilmlaridan xabardor bo'lganlar. Masalan, Umar Xayyomni biz ko'proq mashhur shoir, aniqrog'i, to'rtliklar ustasi sifatida taniymiz. Vaholanki, u etuk yulduzshunos va riyoziyotchi ham edi. Xayyom ishtirokida rasadxona loyihasi chizilib, so'ng bir yil ichida barpo etilgan. Unda olib borilgan kuzatishlar va boshqa izlanishlar natijasida 1097 yili Umar Xayyom Sulton Malikshoh topshirig'iga kura yangi taqvim (kalendar') tuzadi. Uning aniqligi Grigoriy kalendaridan ham yuqori bo'lishiga qaramay amalda joriy qilinmasdan qolib ketgan. Bundan tashqari matematika tarixida

sonlardan butun musbat ildiz topishning umumiy qoidasini birinchi isbotlab bergan ham Umar Xayyomdir.

Qoraxoniylar davlatida kutubxonalar bilim va ma`rifat tarqatishda, buyuk ajdodlari tarixiy-madaniy merosini saqlashda katta ahamiyat kasb etgan. Tarixchi va sayyoh Yoqut Hamaviy (1179 – 1229) Marvda bo`lganida bu erda o`nta yirik kutubxona borligini ko`rgan. Mazkur kutubxonalarda saqlanayotgan kitoblar qimmat va soni jihatidan dunyoda biron-bir kutubxona unga teng kelolmaydi²², deb yozgandi tarixchi.

Xullas, qoraxoniylar davri va faoliyati haqida ko`p yozish mumkin. Ammo bir narsa aniqki, Turkistondan chiqqan namoyanda sifatida qoraxoniylar mazkur mintaqaning siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma`rifiy sohadagi ko`p asrlik tajriba va an`analariga suyangalar, baholi qudrat o`z faoliyatlarida ularni davom ettirishga harakat qilganlar.

2.2. Uu`gonish davri madaniy jarayonlarining me`morchilik uslublariga ta`siri

IX-XII asrlarda o`lkada markazlashgan yirik davlatlarning shakllanishi va ularning rivoji, davlatchilikning mustahkamlanishi, ma'naviy hayot, ilm-fanning rivojlanishigagina emas, balki moddiy madaniyatning ham rivojlanishiga asos bo`ldi. Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O`zgan va Marv kabi shaharlarda saroylar, masjid, madrasalar, minoralar, maqbaralar, tim va karvonsaroylar ko`plab qurila boshladi.

Bu davr O`rta Osiyo me'morchiligida ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib, qurilish material sifatida paxsa, xom g`isht va pishiq g`isht hamda bog`lovchi element sifatida ganchdan foydalanish keng yo`lga qo`yilgan edi. Bu vaqtda sinch qadab quriladigan uy-joylar va umum ahamiyatga ega bo`lgan binolar, saroylar, masjidlar, madrasalar qurilishida yog`och ham muhim o`rin egallar edi.

²² Салжукийлар давлати // Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 7 том. Парчин-солик. – Тошкент., Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат миллий нашриёти, 2004. – Б.446.

X asrlarga kelib binokorlikda qurilish tartibi ham o'zgarib boshladi. Mahobatli qurilishda tomi gumbaz bilan yopilgan kub shaklidagi binolar muhim ahamiyatga ega bo'la boshladi. Buxoroda qurilgan Ismoil Somoniy qabri ustiga pishiq g'isht bilan qurilgan go'zal maqbara fikrimizga misol bo'la oladi. Bu bino to'rtburchak shaklida bo'lib, tomi gumbaz qilib yopilgan. To'rtburchakdan nayzali ravotlar yordami bilan sakkiz qirrali shaklga o'tilgan. Shu bilan birga bu bino to'rt fasadlidir. Uning to'rttala tomoni ham bir xil, old tomonidek bezatilgan. Oddiy qilib aytganda, binoning oldi, yoni va orqa tomoni yo'q. Hamma tomoni bir xilda bezatilgan. Ismoil Somoniy maqbarasini qurishda va bezatishda arablardagi o'sha davr uchun xos bo'lgan me'moriy xususiyatlardan ham ko'p foydalanilgan.

IX-X asr me'morchiligi uslublarini saqlanib qolganligini ko'plab masjidlar misolida ham kuzatish mumkin. Yozma manbalarda qayd qilinishicha, somoniylar davridagi ko'pgina masjidlar o'z vaqtida arablargacha bo'lgan ibodatxonalarining masjidga moslashtirish asosida qurilgan. Ular bir xonali bo'lib, masjidning tomlari ustunga tayanib turgan. Masjidlarning tomi odatda gumbaz shaklida bo'lgan. Masjidlarda, ayniqsa, mehroblari shaklli, yozuvli qilib qirqilgan g'ishtlar, o'yama ganchlar va hatto tilla suvlar bilan bezatilgan. Bu davrga oid masjidlar to'g'risida so'z yuritilganda, Buxorodagi Mag'oki Attoron, Poykand masjidi, Termizdagi Chorustun, Shahristondagi Childuxtaron masjidlarini qayd qilish mumkin. Bu yodgorliklar O'rta Osiyoda diniy me'morchilikning rivojlanish yo'llarini kuzatish imkoniyatini berdi.

Narshaxiyning yozishicha, amir Nasr ibn Ahmad Buxoro Registonida o'zi uchun katta saroy qurdirgan va uning qurilishiga katta mablag' sarflagan. Bu saroy g'oyat go'zal bo'lgan. Saroyning oldida esa devonlar uchun binolar qurilgan. Amir va hokimlar saroyi Nishopur, Marvda, Samarqand va boshqa shaharlarda ham bo'lgan. Bu saroylar o'zlarining kattaligi va go'zalligi bilan ajralib turgan. Ko'p hollarda bunday saroylar xushmanzara joylarda, bog'lar ichida bunyod etilgan.

Saroylarning go'zalligini Termiz shahridagi saroy misolida ko'rish mumkin. Bu saroy to'liq ochib o'rganilgan. Saroy shahar mudofaa devorlaridan tashqarida, bog'lar orasida joylashgan va 10 gektarga yaqin maydonni ishg'ol etgan. Saroy

mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Saroy o'zining mahobatligi, serhashamligi va bag'oyat go'zal, nafis bezaklari bilan odamni o'ziga jalb qiladi.

Somoniylar davriga oid shahar va qishloq aholisining uylari to'g'risida hozir arxeologiya ancha ma'lumotlarga ega. Bu borada qadimiy Samarqand-Afrosiyob, Xorashkent-Kanka, Binkent, Termiz, Marv, Dehiston kabi o'nlab yodgorliklarda olib borilgan izlanishlarning natijasi diqqatga molikdir. Afrosiyobda bu davrga oid katta bir mahalla ochib o'rganilgan.

Qoraxoniylar O'rta Osiyoni bosib olgandan so'ng bu yerdagi madaniy hayotda ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Shaharlar taraqqiy etdi, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi. Shaharlar rivojlanishi bilan shahar aholisi soni ham ko'payib bordi. Somoniylar davridayoq yirik shaharlar bo'lgan Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv, Qoraxoniylar davrida yanada kengaydi. Bu shaharlar endi uch qismli-ark, shahriston, rabotdan iborat edi. Ularda yangidan-yangi hashamatli imoratlar paydo bo'lib, bu imoratlar o'z tuzilishi va naqshlari bilan ajralib turardi.

Qoraxoniy hukmdori Shams ul-Mulk Buxoro yaqinida saroy barpo etdi va bundan tashqari Hazara qishlog'i yaqinida Dingaron masjidini va uning yonida Raboti Malik nomi bilan mashhur bo'lgan karvonsaroy qurdiradi. Buxoro shahrida 1127 yilda Qoraxoniy Arslonxon tomonidan mashhur imorat-Minorai Kalon barpo etildi. Vobkentda XII asrning oxirida Buxoro sadri Abdulaziz II tomonidan qurilgan minorani, Jarqo'rg'onda (Surxondaryo viloyati) Qoraxoniylar tomonidan 1108-1109 yillarda barpo etgan minorani, shuningdek Buxorodagi Nomozgohni va Attoriy masjidini alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

Termiz shahri XI-XII asrlarda ancha rivojlandi, yangi mustahkam mudofaa devori qurildi, bu yerda barpo etilgan Termiz hukmdorlari saroyi ayniqsa mashhurdir. Bu saroyni qazib ochgan arxeologlar turli idishlar bilan birga afsonaviy hayvonlar tasvirini ham topishdi. XI-XII asr boshlarida Xorazmda ham ko'pgina binolar qad ko'tardi, jumladan, Urganchdagi Faxriddin Roziy va Shayx Sharif maqbarasini, ko'plab karvon saroylarni, Buronqal'a, Naifqal'a va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

Biz o'rganayotgan davrda me'morchilikdan tashqari bir necha suv inshootlarini qurish va unda yo'nilgan tosh, pishiq g'isht, suvga chidamli qurilish qorishmalaridan-bandlar, novlar, ko'priklar, sardobalar va korizlar qurilgan. Bu inshootlar mamlakatda fan va ishlab chiqarishni g'oyatda rivojlanganligidan dalolat beradi. 1,5 mln. m.kub suvni to'plash imkoniyatiga ega bo'lgan Xonbandi nomli suv omborining qurilishi fikrimizning dalili bo'lib xizmat qiladi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, bunday suv inshootlarini qurish uchun suvning vertikal va gorizontal bosim kuchlarini hisoblab chiqish va tog'da qurilganligi uchun tez-tez yerning qimirlab turish kuchlarini ham matematik yo'llar bilan hisoblab chiqish lozim bo'lgan va bu ish muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

Bu davr me'morchiligi bilan bir qatorda unga bog'liq bo'lgan naqqoshlik va tasviriy san'at ham jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Imoratlarni o'ymakor ustunlar va to'sinlar, devorlarni esa bo'yoqli, ganchkor naqshlar bilan bezash keng rasm bo'la boshladi. Sekin-asta naqqoshlik san'atida ham ilgariidek, odamlar va hayvonlarni tasvirlangandan ko'ra murakkab geometrik va gulli naqshlarga o'tila boshlandi.

Naqqoshlik san'ati qadimgi Termizda juda rivojlangan edi. Bu borada Hakim Termiziy maqbarasi davridan saqlanib qolgan o'yma naqsh parcha, ayniqsa qimmatlidir. Unda Samarqand usulini eslatuvchi sebarcha shaklidagi o'ziga xos uslublar mavjuddir. Bu davrda xattotlik san'ati kitoblarni ko'chirishdagina emas, balki binolarni bezashda ham keng qo'llanila boshlandi.

Ismoil Somoniy maqbarasi Buxorodagi ko'hna me'moriy yodgorlik (taxm. 864-868). Somo niylar davlati ning asoschisi Ismoil Somoniy va uning avlodlari maqbarasi.

4 tomoni bir xil chordara shaklida, jimjima g'ishtin bezaklari chiviqli to'siq yoki qamish, buyra to'qimasini eslatadi. Devor qalinligi —1,8 m, tarhi, tashqarisi 10,80x10,70 m, ichkarisi 7,20x7,20 m²³. Usti gumbaz bilan qoplangan. 4 burchagi ustunsimon shaklda ishlangan, gumbaz atrofiga 4 qubba o'rnatilgan. Devor tepasida kungirasimon darcha (40 ta). Har bir darcha hoshiyalangan. Ravoq tepasidagi qanos g'ishtin tangachalar marjoni b-n chegaralangan. Ikki chetiga

²³ Vaxitov M.M., Mirzayev SH. R. Me'morchilik. – Toshkent, Tafakkur, 2010. – B. 161.

mayda g'ishtdan chorsi tumor yasalgan. Bino ichkarisi tashkaridagi bezak bilan uzviy bog'liq bo'lib, uslub jihatdan bir xil. Ichki devor gumbaz osti bag'alidagi ustma-ust ravoqchalar ustunchalarga tayangan. Ravoqchalar 8 qirrali gumbaz asosini tashkil qiladi. Qirralar burchagiga gumbazga tirgaklik qiluvchi ustunchalar ishlangan. Arxeologik qazilma vaqti (1927) da xona sahnida 2 yog'och sag'ana borligi aniqlangan.

Yozma manbalar va rivoyatlarga kura, maqbarani Ismoil Somoniy otasi qabri ustiga qurdirgan. Sharq tomondagi sag'ana Ismoil Somoniy qabri (849-907) deb taxmin etiladi. Narshaxiy Buxoro tarixi kitobida Ismoil Somoniyning o'g'li amir Ahmad (914) o'z qullari tomonidan o'ldirilgan va mazkur maqbaraga qo'yilgan deb yozadi. M. Saidjonov topgan vaqfnoma (868 y)da zikr etilishicha, otasi amir Ahmad mozoridan Registongacha bo'lgan yerlarning bir qismi maqbaraga vaqf etilgan. Ismoil Somoniy O'rta Osiyo me'morligi va san'ati tarixidagi dastlabki maqbaralardan.

Uning tuzilishida qadimgi. sugd me'morligining an'analari saklanib qolgan buyuk me'moriy asardir. 1925 y.da gumbazi ta'mir etilgan²⁴. V. Vyatkin boshchiligida arxeologik tekshiruvlar olib borilgan. Binoni kumib yuborgan zax tuproqlardan tozalanib, B. Zasipkin va Usta Shirin Murodov boshchiligida ta'mirlangan (1937-39). Ismoil Somoniy maqbarasi shahar madaniyat va Istirohat bog'i hududida joylashgan. Ismoil Somoniy maqbarasi loyihasidan tortib, hajmiy tuzilishigacha geometrik tartib va qoida asosida yaratilganligi aniqlangan.

Qussam ibn Abbos majmuasi – Samarqanddagi me'moriy yodgorlik (XI - XV) bo'lib, Shohizinda kompleksi tarkibida joylashgan. Majmua turli davrlarda qurilgan masjid, maqbara va chillaxonadan iborat. Qusam ibn Abbos qabri atrofida bunyod etilgan.

Majmuaga chortoqning sharqiy ravog'idagi 2 tabaqali eshik orqali kiriladi. Yo'lakning o'ng tomonida yuqorisi mo'jaz qafasali bejirim minora (bal. 12 m, 12-a.) saqlangan. Masjid 3 ga bo'lingan, yon tomondagi devor ustunlar yordamchi

²⁴ Ahmedov M.Q. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. – Toshkent., O'zbekiston, 1995. –B. 32.

hujralarga birlashtirilgan. Ichki devorining izarasi sirkori yulduzsimon parchinlar bilan bezatilgan. namoyonlar qo‘sh islimiy sirkori parchinli hoshiya bilan o‘ralgan.

Mehrobidagi kitobalari ham sirkori parchinlardan naqshlangan. Masjidning sharqida miyonxona bo‘lib, uning janubi-sharqiy burchagidan maqbaraga o‘tiladi. Dastlab murabba tarhli, gumbaz bilan yopilgan go‘rxona-sag‘ana, ziyoratxona va uning ostida joylashgan chillaxonadan iborat maqbara qurilgan²⁵.

Qusam ibn Abbos sag‘anasi Amir Temur davrida o‘rnatilgan: sag‘ana ustma-ust qo‘yilgan 3 ta to‘g‘ri to‘rtburchakli va ularning ustidagi 1 egri sirtli, jami 4 qismdan tuzilgan, yon tomonlarining yuzasi zarhal islimiy naqshlar bilan ziynatlangan, ular orasiga Qur'on oyatlari, hadislar bitilgan. Sag‘anani ziyoratxonadan ko‘rish uchun go‘rxonaning shim. devoriga yog‘och panjara o‘rnatilgan. Keyinroq masjid va boshqa binolar qurilgan. Bino bag‘allariga muqarnaslar ishlangan, gumbazi sirkor qoplamaga ega. Majmuada gi eshiklar 2 tabaqali o‘ymakori nafis naqshlar, suls xatidagi kitobalar bilan ziynatlangan. Majmua tarkibidagi xonalarning tarhiy bog‘lanishi puxta hal etilganligi bilan ahamiyatga ega.

Shohizinda nomi Muhammad payg‘ambarning (s.a.v.) amakivachchasi Qusam ibn Abbosning afsonaviy qabri bilan bog‘liq, V-VII asrda Samarqandga arab istilochilari bilan birga islom, dinini targ‘ib qilish uchun kelgan. Ko‘pgina afsonalarda aytilishicha Qusam ibn Abbosni namoz o‘qib tyrgan paytda kofirlar o‘ldirgan deyiladi. Xalq orasida keng tarqalgan yana bir rivoyatda Qusam ibn Abbos mehrobga kirib, ko‘zdan g‘oyib bo‘lgan, boshqa bir rivoyatda esa u kesilgan kallasini qo‘liga ko‘tarib, yer ostidan boqqa boradigan chuqur quduqqa tushib ketgan va hozir ham bog‘da barhayot yashaydi deyiladi²⁶.

Kompleksning sharqi-shimoliy qismidagi Qusam ibn Abbos maqbarasiga doir afsonalarni ruhoniylar to‘qiganlar. Bu afsonalar maqbaraga ko‘plab ziyoratchilarni jalb qilish uchun ruhoniylar o‘ylab chiqargan bir vosita edi.

²⁵ O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 17-tom. – T., Qomuslar bosh tahririyati, 2005. – B.562.

²⁶ Nemseva N.B. Shohizinda -T., O‘zbekiston, 1965. –B..5.

Sovet davrida Shohizinda kompleksi nodir tarixiy arxitektura yodgorligi sifatida, davlat muhofazasiga olindi. Bu nodir yodgorlikni tekshirish va restavratsiya qilishga katta ahamiyat berilmoqda.

O‘zbekistonlik olimlari Shohizinda kompleksini necha o‘n yillar mobaynida sinchiklab o‘rganib kelmoqdalar. Urushdan keyingi davrda boshlangan qayta tiklash ishlari keyingi maqalda ayniqsa keng avj oldi. Arxitektura-arxeologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, bu kompleks bundan to‘qqizasr muqaddam vujudga kela boshlagan²⁷.

Qabrison joylashgan maydon XI asrning ikkinchi yarmiga qadar shaharning aholi yashaydigan qismini tashkil etgan. Bu yerda xom g‘ishtdan qurilgan juda ko‘p uy-joylar bo‘lgan. Yozma manbalar va arxeologik tekshirishlar natijasida ma‘lum bo‘lishicha, X asrda shahar asta-sekin hozirgi Samarqand hududi tomon kengaya boshlagan.

XI asrning oxirlarida Afrosiyobning janubiy chekkasidan bir qismi huvillab qolgan bu yerda qabrison va dastlabki maqbaralar paydo bo‘lgan. Kusam ibn Abbos maqbarasi ilk inshootlardan bo‘lib, undan so‘ng XI-XII asrda juda serhasham bezatilgan boshqa maqbaralar vujudga kela boshlagan. Arxeologlar ulardan uchtasining qoldiqlarni topib, inshootlarining g‘arb tomonidagi yo‘lkadan qazib topdilar.

Bu maqbaralar Samarqandning hukmron doiralariga mansub bo‘lib, XIV asrdagi maqbaralardan bezaklari bilai farq qilgan. Maqbara sopollar bilan qoplangan.

O‘sha davrlardayoq Qussam ibn Abbos maqbarasi va uning atrofidagi maqbaralar «avliyolarniki» hisoblanib, zamondoshlarning yozishicha «ziyoratgoh» bo‘lgan.

XIII asrdagi mo‘g‘ullar istilosi natijasida Samarqand xarob bo‘ldi. Afrosiyob huvillab qoldi. Aholi hozirgi shahar hududiga ko‘chib ketdi. Shu davrda Shohizinda kompleksi inshootlarining ham ko‘p qismi vayron bo‘ldi.

²⁷ Nemseva N.B. Shohizinda -T., O‘zbekiston, 1965. –B..6.

Qabriston XIV asrda qaytadan tiklana boshlaydi. XIV asrning boshlaridayoq kompleksda tiklash ishlari olib boriladi va yangi maqbaralar quriladi. Hozircha saqlangan yo‘lakning oxirida (shimoliy tomonida) Xo‘ja Ahmad va «Noma'lum kishi» maqbaralari (1360-1361) paydo bo‘ladi.

Mag‘oki Attori masjidi-Buxorodagi me'moriy yodgorlik (X-XVI). Mag‘ok (chuqurlik)da va attor bozori yaqinida joylashgani sababli Mag‘oki Attori masjidi deb nomlangan. Qadimgi 4 ustunli Moh masjidi (IX) o‘rnida XII asrda eski loyiha asosida qayta qurilgan (1934yilda arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan)²⁸.

XIV asrda ta'mirlangan, XV asrda peshtoqining yuqori qismi buzilgan. Abdulazizxon davrida (1541—42) binoning yuqori qismi, gumbazlari qayta qurilgan. Masjid tarhi (13,35x17,6 m) sodda yechimga ega, ichkarisi 6 ustunli, 12 gumbazli, o‘rta gumbazi balandroq bo‘lib, uning asosi (poygumbazi)dagi darchalar orqali bino ichiga yorug‘lik tushadi. Sharqiy qismini keng pillapoyali zina egallagan. Bosh tarzidagi peshtoq g‘ayriodatiy ravishda binoning yon tomonida joylashgan. Keyinchalik sharqiy qismiga qayta qurilgan. Peshtoqining ko‘rinishida yoysimon chuqur ravoq va undagi o‘ziga xos bezaklar muhim o‘rin tutadi. Ganch va mayda g‘isht bo‘lakchalaridan bezatilgan peshtoq hashami g‘oyatda nafis va yuksak badiiy did bilan bajarilgan. Namoyon o‘lchamlariga mutanosib ravishda murakkab bo‘rtma bezaklar ishlangan. Ustungo‘shalari o‘yma naqshlar bilan, gumbazi vazasimon shaklda ko‘rkamlashtirilgan. Mag‘oki Attori masjidining bezaklari XII asr Buxoro me'morlik maktabining yuksak namunasi sifatida O‘zbekiston me'morlik tarixida alohida o‘rin tutadi. 1939-1949 yillarda peshtoqi mustahkamlanib ta'mirlangan, atrofi obodonlashtirilgan.

Tarixiy adabiyotlarda O‘rta Osiyo me'morchiligining taraqqiyoti Qoraxoniylar davlatining gullagan davriga to‘g‘ri kelishi va bu davr muvaffaqiyatli harbiy yurishlardan so‘ng yuz berganligi haqida ma‘lumotlar beriladi. Bu yurishlar asosan, XI asrning 70-80 yillarida yuz berib, bu davrda qoraxoniylar davlati taxtida Malikshoh hukmronlik qilayotgan va o‘z adolatlighi va donolighi bilan nom

²⁸ O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 6-tom. – T., Qomuslar bosh tahririyati, 2005. – B.169.

qozongan Nizom ul-muluk davlat boshqaruvini mohirlik bilan olib borayotgan edi²⁹.

Qoraxoniylarning Movarounnahr saltanatining qulashi bilan «birinchi» saltanat barham topgan bo'lsa, ularning g'arbga ko'chishi «ikkinchi» saltanat vujudga kelgan³⁰. Bu davrda sultonlarning o'z qo'l ostidagi amaldorlari bilan o'zaro kelishmovchiligi ham saltanat tanazzulini tezlatgan.

Ismoiliylar – VIII asr o'rtalarida arab xalifaligida shialik yo'nalishida shakllanib, X-XI asrlarda Yaqin va O'rta Sharqda keng tarqalgan diniy oqim tarafdorlari. Ismoiliylar oqimining shakllanishi arab xalifaligida ziddiyatlarning va xalq qo'zg'olonlarining kuchayishi bilan bog'liq. Shialikning ba'zi tarafdorlari xalifalik taxtini egallagan abbosiylar bilan ma'lum darajada kelishib ish tutganlari tufayli abbosiylarga qarshi kurashni davom ettirish niyatida bo'lgan bir guruh shialar imom Ja'far as-Sodiqning katta o'g'li Ismoil atrofida jipslashganlar. Imom Ja'far Ismoilni vorislikdan mahrum etib, kichik o'g'li Muso al-Kozimni voris qilib tayinlaydi. Bundan norozi bo'lgan Ismoil tarafdorlari uning vafotidan keyin (762 yil), uning o'g'li Muhammad ibn Ismoilni imom etib tanidilar.

IX asr oxirlariga kelib ismoiliylik mustaqil diniy firqa sifatida tashkil topdi. Ular maxfiy uyushma va tashkilotlar tuzdilar. Bu tashkilotlar muayyan guruhlarining manfaatlarini ifoda etar edi. Shu davrda yunon falsafasi, neoplatonizm, neopifagoreizm, xristian gnostisizmi va boshqa oqimlar ta'siri ostida Ismoiliylarning murakkab diniy-falsafiy tizimi shakllandi. Ularning ta'limoti avvalo ikkiga: zohiriy (tashqi) – ochiq va botiniy (ichki) –maxfiy ta'limotlarga bo'linadi. Zohiriy ta'limot shialarning umumiy ta'limotidan kam farq qiladi, bu ta'limot firqaning maxfiy ta'limotidan bexabar bo'lgan oddiy ommaga mo'ljallangan edi. Birinchi bor botiniy ta'limotni movarounnahrlik an-Nasafiy (942 yilda vafot etgan) asoslab berdi. Unga ko'ra, mutloq xudo o'zidan quyi bo'lgan 7 ta pag'onani ajratadi (emanatsiya) ya'ni: mutloq xudo, olamiy aql,

²⁹ Бейлис В.М. Из истории везирата в период кризиса Сельджукского государства. Везир Муаййид ал-Мулк // Средневековый Восток. История. Культура. Источниковедение. – Москва: Наука, 1980. – С. 34.

³⁰ Петрушевский И.П. Сельджукское государство. Советская историческая энциклопедия. Т.12. – Москва, 1976. – С. 720.

olamiy jon, birlamchi materiya, fazo, vaqt va komil inson (ya`ni payg`ambar). Kamolotga erishgan inson ismoiliy ta`limoti bo`yicha o`zida «olamiy aql» ni aks ettirgan otiq bo`lib, u payg`ambar maqomida bo`ladi va vahiyi insonlarga yetkazib beradi, o`zida «olamiy jon»ni aks ettirgan somit (jim turuvchi) esa oyatlardagi botiniy mazmuni tushuntirib beradi. Ismoiliylar tasavvurida insoniyat tarixi Odamatodan Qoimgacha bo`lgan «buyuk davrdir». U 7 «fitra»dan iboratki, ularning har biriga muayyan notiq «payg`ambar» to`g`ri keladi. Odam, Nuh, Ibrohim, Muso, Iso, Muhammad. Har bir payg`ambar davrining yettinchi imomi keyingi payg`ambarga aylanadi. Demak Ismoilning o`g`li Muhammad – yettinchi imom, Qoim qiyofasida yettinchi payg`ambar bo`lib kelishi va «Qiyomat Qoim»gacha hukm surishi kerak.

O`rta asrda ismoiliylar orasida nizoriylar (hashshoshiylar), musta`liylar, druzlar va qarmatlar ajralib chiqdi. Ismoiliylar ta`limoti, xususan, qarmatlar mafkurasi islom dinining o`ta so`l maslagi bo`lgan. O`rta asr tafakkurining yirik namoyondalari Rudakiy, Ibn Sino, Abu-l-A`lo al-Ma`rriy va boshqalarga qarmatlar mafkurasi ta`sir ko`rsatgan. Mashhur shoir va mutafakkir Nosir Xisrav esa Ismoiliylarning yirik namoyondalaridan biri bo`lgan. Hozirgi davrda nizoriylar Suriya, Eron, Afg`oniston shimolida, Tog`li Badaxshonda, musta`liylar Yaman, Hindiston, Pokiston, Misrda, druzlar Suriya va Livanda saqlanib qolgan.

Ismoiliylar davlati 1090 yilda tuzilgan. Davlat markazi Alamut shahri bo`lgan. Unga Eron, Suriya va Ozarbayjondagi bir necha viloyat, shaharlar va qal`alar kirgan. Ismoiliylar davlati yaxlit hududga birlashmagan edi. Bu davlat hashshoshiylar harakati natijasida vujudga kelgan. Ismoiliylar davlati asoschisi Hasan ibn Sabboh (1124 yilda vafot etgan) va uning avlodlari cheklanmagan siyosiy hamda ma`naviy huquqqa ega bo`lgan. Mahalliy va xalqaro savdo yo`lida joylashgan Ko`histon viloyati Ismoiliylar davlatining taraqqiy etgan qismi edi. Eng yaxshi yaylov va yerlarning, karvonlardan keladigan bojlarning ko`pligi tufayli Ismoiliylar davlati inqtisodi tez rivojlandi. Ammo, mulkiy tengsizlikning o`sib borishi bilan Ismoiliylar davlatida siyosiy kurash avj oldi. XIII asrning 1-choragida Ismoiliylar davlati tepasida turgan xalqchil guruh xorazmShoh Jaloliddin

Manguberdini mo`g`ullarga qarshi kurashini qo`llab-quvvatladi. Biroq keyinchalik Ismoiliylar davlatidagi ichki qarama-qarshiliklardan foydalangan mo`g`ullar Alamutni (1256), Ismoiliylar davlatining Suriyadagi mulklarini esa mamluklar egallab oldi³¹.

Hashshoshiylar (arabcha hashish chekuvchilar, giyohvandlar) – ismoiliylar ichidagi yashirin terrorchilik bilan shug`ullangan firqa tarafdorlari. XI asr oxirida Eronda ismoiliylar harakatining bo`linib ketishi natijasida paydo bo`lgan. Asoschisi Hasan ibn Sabboh (1124 yilda vafot etgan). Eronning shimoli-g`arbidagi tog`lar orasida joylashgan Alamut qal`asi Hashshoshiylar jamoasining markazi bo`lgan. Hashshoshiylar harakati Suriya va Livanda, keyinchalik Hindistonda tarqalgan. U O`rta Osiyo, YAqin va O`rta SHarq mamlakatlaridagi qarmatlar harakati bilan uzviy bog`liq. Hashshoshiylar xalifalik va qoraxoniylarga qarshi kurashgan. Hashshoshiylar rahbarlari o`z dushmanlarini o`ldirishni siyosiy kurashning asosiy vositasi deb bilgan. Hashshoshiylar g`oyat yashirin holda ish ko`radigan va tarmoqlangan terrorchilik tashkilotini vujudga keltirgan. O`z maqsadlarini amalga oshirish (hukmdorlar, podsholar, qirollar va yirik namoyondalar)da fidoiylar (qashshoq dehqon va shaharlik yoshlar) dan foydalangan. Terrorchi fidoiylarga giyohvand moddalarni iste`mol qildirib, o`lsa shubhasiz jannatga tushishiga ishontirishgan. Birmuncha dava Hashshoshiylar ko`p hukmdorlarga dahshat solib turgan, ulardan ko`plari (jumladan, ayrim Yevropa mamlakatlari imperatorlari va qirollari ham) o`z jonini saqlash uchun Hashshoshiylarga to`lov to`lab turgan. 1256 yilda mo`g`ul istilochilari Alamutni bosib olib, Erondagi Hashshoshiylar jamoasiga barham bergan. 1273 yilda mamluklar qo`shini Suriya va Livandagi Hashshoshiylarning oxirgi tashkilotlarini tugatgan³².

Mashhur vaziri a`zam nizom ul-muluk bilan birga faoliyat ko`rsatgan Anishirvon ibn Xalil al-Koshoniyning (u kishi dastlab Bag`dod xalifasining vaziri

³¹ Исмоилийлар ва Исмоилийлар давлати // Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 4 том. Зебуннисо-Кониғил. Давлат илмий нашриёти. 2005. – Б. 248-249.

³² Ҳашшошийлар // Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 11 том. Қизилқўмит-Ҳурмўз. Давлат илмий нашриёти. 2005. – Б. 322-323.

bo`lib ishlagan, keyinchalik saljuq sultonlari xizmatda bo`lgan) yozishicha, qoraxoniylar davlatining qulashi vazirlik lavozimining mamlakat siyosatidagi ta`sirining pasayishi bilan bevosita bog`liq edi. Shu sababdan bu davrni Anishervon «Vazirlar qulashi davri yoki qulayotgan vazirlar davri» deb nomlagan³³. Nizom ul-muluk davrida mamlakatdagi sarf-xarajatlar va kirim-chiqim ishlari barchasi vazir qo`lida bo`lgan. Shuningdek, harbiylarning maoshlari va sultonning aholiga, yirik amaldorlarga va boshqa sohalarga yillik homiyliklari aynan vazir tomonidan belgilab berilgan.

Nizom ul-mulukdan so`ng hokimiyatga kelgan vazirlar o`z ishining ustasi yoki davlat ishlarida mohir bo`lmasalarda, Nizom ul-mulukning shuhrati bilan ish olib borar edilar. Shu sababdan ayrim manbalarda Nizom ul-mulukni «vazirlar sulolasining asoschisi» sifatida qayd etish holatlari uchrab turadi³⁴.

Nizom ul-mulk vafotidan so`ng taxt uchun kurashlar shuni ko`rsatdik-ki, vazirlik lavozimining mamlakatdagi ta`sirini pasaytirishga qaratilgan bo`lsa-da, aksincha, vazir o`g`illarini hukmdorga qarshi kayfiyatda bo`lishini ta`minladi. Chunki, bu paytda Nizom ul-mulkning o`g`illari va u bilan safdosh bo`lganlar yuqori davlat lavozimlarini egallab turgan edi. Shu munosabat bilan vazirning o`g`illari, garchi bu lavozimga layoqati bo`lmasada, vazirlik lavozimiga tayinlangan. Bunday ish birinchi bo`lib, Barqiyoruq tomonidan amalga oshirilib, u Nizom ul-mulukning o`g`li Izza ul-mulukni vazir etib tayinlagan. Barqiyoruqning taxt uchun kurashdagi raqibi amakisi Tutush esa Nizom ul-mulukning yana bir o`g`li Faxr ul-mulkni Antioxiyalik Yogi Sionning maslahati bilan vazirlik mansabiga tayinlagan³⁵.

Barqiyoruqning taxt uchun kurashdagi raqibi, yana bir amakisi, Xuroson hokimi Arslon Arg`un Nizom ul-mulukning uchinchi o`g`li Imad al-mulkni vazir vazir etib tayinlagan.

³³ Бейлис В.М. Из истории везирата в период кризиса Сельджукского государства. Везир Муаййид ал-Мулк // Средневековый Восток. История. Культура. Источниковедение. – Москва: Наука, 1980. – С. 35.

³⁴ Строева Л.В. Династия Исмаилитов в Исфахане // Вестник ЛГУ. – Ленинград, 1962. № 14. – С. 63.

³⁵ Бейлис В.М. Из истории везирата в период кризиса Сельджукского государства. Везир Муаййид ал-Мулк // Средневековый Восток. История. Культура. Источниковедение. – Москва: Наука, 1980. – С. 37.

1094 yilda Barqiyoruq qo`shinlari Tutush qo`shinlari tomonidan tor-mor etiladi, vazir Izza ul-muluk halok bo`ladi. Barcha harbiy kuchlaridan ayrilgan Barqiyoruq esa o`zining kichik ukasi Isfahon hokimi Mahmud huzuriga qochib borib, u yerda uy qamog`iga mahkum etiladi. Ammo, tez orada Mahmudning kasallanib vafot etishi, Barqiyoruqning ozodlikka chiqishini ta`minlagan.

1095 yilning yanvarida Isfahonda hokimiyatni Barqiyoruq qo`lga olib Muayyid al-mulkni vazirlik mansabiga tayinlaydi. Ushbu shaxs Barqiyoruq saroyida uning raqibi Tutushga qarshi kurashga boshchilik qildi, katta obro`-e`tibor qozondi. U sulton Barqiyoruqning kasalligidan foydalanib, uning nomidan Xuroson va Iroq amirlariga Tutushga qarshi kurashda sultonga yordam yuborishlari buyurilgan noma jo`natdi. Bu tadbir natija berib, 1095 yilning fevralida Tutush qo`shinlari tor-mor etildi. Anushervon ibn Xolidning yozishicha, Barqiyoruq jang g`alabasini aynan Muayyid al-mulk qo`lga kiritganligini etirof etgan³⁶. G`alabadan so`ng Muayyid al-mulk, bir guruh amirlarga tayanib, dargoh nomidan sultonni bu paytda sultoning onasi Zubayda xotun rahbarlik qilayotgan dargohning ta`siridan xalos etmoqchi bo`lgan. Vazir sultonga dargohni tarqatib yuborishni yoki uning mahkamasini saroydan tashqaridagi binolarga ko`chirishni tavsiya qilgan. Ammo, sulton bunga rozilik bermagan. Bu esa o`z navbatida Muayyid al-mulkni istefoga chiqishini ta`minladi. Dargoh va vazir o`rtasidagi o`zaro kelishmovchiliklarning asosiy sababi vazir tomonidan saltanat xazinasining kirim-chiqim ishlarini nazorat qilinishi edi. Hali Muayyid al-mulk vazirlik lavozimidan chetlashtirilmasdan avval saltanat moliya ishlariga boshchilik qilgan mustavfiy Ali al-Kumma mansabdan chetlashtirilib, zindonband etilgan edi. Uning o`rnini sulton onasi Zubayda Xotunning maslahatgo`yi, Nizom ul-mulkning ko`p yillik raqibi Majid al-mulk al-Bolasoniy tayinlandi. Muayyid al-mulkni Faxr al-mulkka almashtirildi. Bu shaxs Muayyid al-mulkning katta akasi bo`lib, bu lavozimga erishish uchun otasidan qolgan ko`plab qimmatbaho toshlarni savdoga qo`ygan edi. Faxr ul-mulk o`z fikriga ega bo`lmagan shaxs bo`lib, mamlakat

³⁶ Бейлис В.М. Из истории везирата в период кризиса Сельджукского государства. Везир Муаййид ал-Мулк // Средневековый Восток. История. Культура. Источниковедение. – Москва: Наука, 1980. – С. 38.

siyosat maydonida hech qanday ta`sirga ega bo`lmagan, dargohda faqat Majid al-mulkning ko`rsatmasi bo`yicha ish olib borar edi.

Xulosa o`rnida shuni qayd etish lozimki, O`rta Osiyo memorchiligining eng gullagan davri Qoraxiniylar davriga to`g`ri keladi. Bu sulola vakillari esa bunday muvaffaqiyatga zafarli yurishlar oqibatida erishganlar.

XULOSA

IX–XIII asr boshlarida Movarounnahr va Xorazmda me`morchi-lik va san`at yangi rivojlanish bosqichida bo`ldi. Avvalambor, o`rta asr jamiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va islom dini mafkurasi madaniy hayotning bu sohasiga ham kuchli ta`sir qildi. Uning tashqi qiyofasi va mazmuni tubdan o`zgardi. Qolaversa, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi natijasida uning yangi yo`nalishda ravnaq topishi uchun qulay sharoit yuzaga keldi. VIII asrda yuz bergan tushkunlikdan keyin shaharlar kengayib, obodlashadi. Asrlar davomida to`plangan va avloddantavlodga an`ana ravishda o`tib, tobora boyib kelgan me`mor-chilik yuqori darajada rivojlanadi. Shaharlarda hashamatli binolar qad ko`taradi. Binokorlikda xom g`isht va paxsa bilan bir qatorda pishiq g`isht va turli xil ganch hamda ohakli qurilish qorishmalari keng ishla-tilib, binolarning shakli ham, ko`rinishi ham ko`rkamlashadi. Baland peshtoqli yoki chortoqli, tomi gumbazli hashamatli binolar hamda o`ymakor g`ishtlardan qurilgan ko`rkam minoralar har bir shaharning ko`rki bo`lib, uning husniga husn qo`shar va manzarasini bezab turar edi. Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O`zgan va Marv kabi shaharlarda bu davrda ko`plab saroy, masjid, madrasa, minora, maqbara, tim va karvonsaroylar quriladi. Buxoro shahridagi Ismoil Somoniy, Nomozgoh, Minorai Kalon, Vobkent va Jarqo`rg`on minoralari va ko`pgina boshqa binolar o`sha davr me`morchiligining namunalaridandir. Bu yodgorliklar IX–XII asrlarda Movarounnahrda o`ziga xos me`morchilikning g`oyat rivoj topganligidan dalolat beradi. Bu davrda monumental me`moriy binolardan tashqari yo`nilgan tosh, pishiq g`isht va suvga chidamli qurilish qorishmalaridan turli xil suv inshootlari: suv omborlari – bandlar, novlar, ko`priklar, sardotialarva korizlar barpo etiladi. Qizig`i shundaki, bunday inshootlarning o`lchamlari matematika nuqtai nazaridan g`oyat puxta ishlangan. Masalan, X asrda Nurota tizmalaridagi Past tog` darasi to`silib, barpo etilgan

Xonbandi nomli suv omboriga 1,5 mln metr kub suv to`plangan. To`g`on granit toshi va suvga chidamli qurilish qorishmasidan qurilgan³⁷.

Xonbandining yechimlaridan ma`lum bo`lishicha, uni bino qilish-da X asr muhandislari hovuzga to`planadigaa suvning vertikal hamda gorizontal ag`daruvchi kuchlarigina emas, balki bu hududlarda tez-tez sodir bo`ladigan zilzilalarning silkinish kuchlarini ham hisobga olganlar. Bu shubhasiz, XVII asr mashhur fransuz fizigi Blez Paskal tomonidan suvning bosim kuchi to`g`risida yaratilgan qonun kashfiyotchisidan qariyb 7 asr muqaddam movarounnahrlik muhandislaiga ma`lum ekanli-gidan dalolat beradi.

X asrdan boshlab binokorlikda sinchkori imoratlar keng tarqaladi. Yakkasinch va qo`shsinchli binolarning tagsinchlaridan tortib, ustunlari-yu sarroflari va to`sinlarigacha yog`ochlarni payvandlash uslubida qurilib, sinchlarning oiasi xom g`isht yoki guvalalar bilan urib chiqilgan. Bu tuzilishdagi imoratlarni qurish hozirgacha saqlanib keladi.

Afrosiyob, Varaxsha, Buxoro va Poykand shahar xarobalarida kovlab ochilgan turar joy qoldiqlaridan ma`lum bo`lishicha, X–XI asrlarda ham paxsa va xom g`ishtdan qurilgan imoratlar shahar me`morchiligida asosiy o`rinni tutgan.

IX–XII asr boshlarida me`morchilik bilan birga naqqoshlik va o`ymakorlik san`ati ham ancha rivoj topadi. Imoratni o`ymakor ustun va to`sinlar, devorlarini bo`yoqli yoki ganchkori naqshlar bilan bezash keng tarqaladi. Bu daviga kelib naqqoshlik va tasviriy san`at o`zgacha tus oladi. Endilikda u jonli mavjudotlarni tasvirlashdan murakkab, geometrik va islami gulli naqshlar ishlashga o`tiladi.

Naqqoshlik san`atining taraqqiyoti o`z navbatida kulolchilik, miskarlik va zargarlikning ravnaqiga yordam beradi. Samarqand, Buxoro, Toshkent va boshqa shaharlar kulolchilik, raiskarlik va zargarlik rivoj topgan markazga aylanadi. XI–XII asrlarda, ayniqsa sirli sopol buyumlar ishlab chiqarish keng yo`lga qo`yiladi. Bu davr sopol buyumlari nihoyatda yaxshi sifatli bo`lib, chet el mamlakatlariga ham olib chiqilgan. Bu davrda xattotlik xalq san`atining muhim va keng tarqalgan

³⁷ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. -T.:Sharq, 2000. – B. 152.

sohalaridan biri edi. Hali kitob bosish kashf etilmaganligi, qo`lyozma kitoblardan nusxalar xattotlar tomonidan faqat qo`lda ko`chirilishi tufayli xattotlik san`ati ancha rivoj topadi. Turli uslubda husnixat bilan bitilgan xattotlik namunalari me`moriy naqshlarda ham hayotiy mazmun va estetik zavq beruvchi bezak sifatida ishlatiladi.

Odatda, imoratlarning peshtoqi, eshigi va devorining ayrim qismlari turli mazmundagi bitiklar bilan qoplanar edi. Shunday qilib, IX–XIII asr boshi me`morchiligi va unda ishlatilgan me`moriy naqsh uslublari o`z navbatida mehnatkash aholining did-nafosat va binokoriik g`oyalarifcilan chambarchas bog`langan xalq me`moriari – bannolarining sermazmun ijodini namoyish etadi.

Tarixdan ma`lumki, O`rta Osiyo IX-asrga kelib arab xalifaligidan chiqib, mustaqil Somoniylar davlatiga aylandi.

Somoniylar davrida O`rta Osiyoning madaniy-maishiy taraqqiyoti ancha tezlashib ketadi. SHaharlar qurilishi, xalq xo`jaligi taraqqiyoti, er osti boyliklarini ishlab chiqarishi mamlakatda san`at, madaniyat va me`morchilikni rivojlanishiga, chet ellar bilan madaniy-iqtisodiy aloqalarni kuchayishiga olib keldi³⁸.

Ayniqsa, Samarqandda qog`oz ishlab chiqarilishi bilan kitobsozlik san`ati kuchaya boshladi. Ko`plab qo`lyozma kitoblar tayyorlandi. Kitob kolle-grafiyasi, illyustratsiyasi vujudga keldi. Miniatyura san`ati rivojlana boshladi.

IX-XI asrlarda Buxoro, Termiz, Urganch kabi shaharlarda hunarmandchilik san`ati yaxshi rivojlandi. Yirik shaharlarda chilangarlik va misgar-lik rivoj topdi. Qozon, g`alladon, bargash, ko`za, jom, qadah, obdasta, shamdon, pardozlik buyumlar, zebu-ziynatlar yuksak mahorat bilan ishlan-di. Kulolchilik, kashtachilik, shisha idish tayyorlash, sopolga sir berish ixtiro qilindi. Sopol idishlarga gul, barg, sharcha, naqsh, baliq, qush kabilarning tasviri ishlanadigan bo`ldi.

Memorchilik san`ati yangi an`analar bilan boyidi. Bu davrda ko`plab masjid, madrasa, maqbara, minoralar qurildi. Me`morchilikda ko`proq pishgan g`isht, yo`nilgan tosh bilan qurildi. Binolarni bezashda o`yma terrekota, sirlangan g`isht

³⁸ Oripov B. O`zbekiston me`morchiligi va san`ati tarixi. – Namangan, 2007. – B. 43.

va koshinlardan foydalanildi. Ichki inter'eri ganch o'ymakorligi, bo'yama naqshlar, arab-kufiy nasx yozuvlari tasviridan foydalanilgan holda bezatildi.

X asrdan boshlab, saroylar qurilishi shahar ichkarisida olib borildi. IX-XI asrlarda me'morchilik bilan uyg'unlashgan holda naqqoshlik san'ati avj oldi. Uning turli xillari, uslublari, kompozitsiya va elementlari vujudga keldi³⁹.

Bu davrda me'morchilikni nazariy asoslari ham rivojlandi. Abu Rayhon Beruniy me'morchilik haqida ilmiy asar yozdi. Bu asar «Kitob al-xiyal ar-ruxoniyya val asror at-tabiiyya fi daqiqoq al-ashkal al-xandasiyya» nomi bilan yuritilib, u 10 kitobdan iborat edi. Bu asar Beruniy zamonidan bugungi kungacha me'morchilikni asosiy qonuniyati bo'lib keladi.

Shu o'rinda mavzu adabiyotlar va tahlil etilgan ma'lumotlar asosida quyidagicha xulosalarga kelindi:

- O'rta Osiyo xalqlari hayotida muhim o'rin tutgan va ilk bor me'morchilik an'analarining boshlanishi bevosita IX-XII asrlarga to'g'ri keladi.;

- Bizda islomdan oldingi davr me'morchiligi haqida ma'lumotlar mavjud emas, ammo, bu O'rta Osiyo xalqlarining turar joylar qurish ishidagi tajribasi mavjud bo'lmaganligini anglatmaydi;

- taxtda hukmdorning davlat boshqaruvidagi shaxsiy tashabbusi orqali mamlakatda boshqaruv tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilishi madaniy taraqqiyotning muhim omili bo'lib xizmat qilgan;

- avvalo turar joylar qurishdagi tajriba va mahorat buyuk tarixga ega mahobatli binolar qurish uchun zamin bo'lib xizmat qilgan.

Quyidagi takliflarni o'rinli deb hisoblaymiz.

1. IX-XII asrlar me'moriy yodgorliklari aks ettirilgan tarixiy manbalarni topib, ularni qurulish jarayonini yanada chuqurroq o'rganish

2. Ularni asrab-avaylash ishini yosh avlodga muntazam o'rgatib borish

³⁹ Oripov B. O'zbekiston me'morchiligi va san'ati tarixi. – Namangan, 2007. – B. 44.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rasmiy adabiyotlar

- 1.1. Каримов И. А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятининг шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. 19- жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 345 б.
- 1.2. Каримов И. А. Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажакимизнинг гаровидир. – Т.: Ўқитувчи, 2011. – 144 б.
- 1.3. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 440 б.
- 1.4. Каримов И. А. Бизнинг йўлимиз демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом эттириш йўлидир. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 312 б.
- 1.5. Каримов И. А. Мустақиллик – барча эзгу режа ва марраларимизнинг мустаҳкам мезонидир // Ўзбекистон Республикаси Президенти И. А. Каримовнинг давлат мустақиллигининг 22 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи. Халқ сўзи. 2013 йил 2 сентябрь.
- 1.6. Каримов И. А. Амалга оширилаётган ислохотларимизни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти куриш – ёруғ келажакимизнинг асосий омилидир // Ўзбекистон Республикаси Президенти И. А. Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. O`zbekiston ovozi. 2013 йил 10 декабрь.
- 1.7. Каримов И. А. Тинчлик ва аҳиллик – мамлакатимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигимиз асосидир // Ўзбекистон Республикаси И. А. Каримовнинг 9- май «Хотира ва кадрлаш куни» муносабати билан сўзлаган нутқи. O`zbekiston ovozi 2014 йил 10 май.
- 1.8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 февралдаги ПҚ-2124-сонли «Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарори // Turkiston. 2014 йил 8 февраль.

II. Asosiy adabiyotlar

- 2.1. Агаджанов С. Г. Сельджукиды и Туркмения в XI-XII вв. – Ашгабад., Илим, 1973. – 173 с.
- 2.2. Асқаров А. Ўзбекистон тарихи. 1-қисм. –Тошкент., Ўқитувчи, 1992.
- 2.3. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет. 2007.
- 2.4. Ahmedov M. Q. O`rta Osiyo me`morchiligi tarixi. – Toshkent: O`zbekiston, 1995. –В. 32.
- 2.5. Бартольд В. В. Обзор истории тюркских народов. Сочинения. Т.5. – Москва, 1968. – 430 с.
- 2.6. Бейлис В. М. Из истории везирата в период кризиса сельджукского государства. Везир Муаййид ал-Мулк // Средневековый Восток. История. Культура. Источниковедение. – Москва: Наука, 1980. – С. 34-49.
- 2.7. Bolshakov O. G. Gorod v konse VIII – nach. XIII v. // Srednevekovoy gorod Sredney Azii. – L., 1973. – S. 142.
- 2.8. Буниёдов З. М. Гарс ан-Нима – историк сельджукиского периода // Средневековый Восток. История. Культура. Источниковедение. – Москва: Наука, 1980. – С. 49-53.
- 2.9. Vaxitov M. M., Mirzayev Sh. R. Me`morchilik. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – 161 b.
- 2.10. Vyatkin V. L. Afrasiab – gorodishe belogo Samarkanda. Arxeologicheskiy ocherk. – Tashkent, 1927. – 116 s.
- 2.11. Гусейнов Р. А. Взаимоотношения Византии и сельджуков в Малой Азии в XI-XII вв. // Средневековый Восток. История. Культура. Источниковедение. – Москва: Наука, 1980. – С. 120-127.
- 2.12. Зиё А. Ўзбек далагчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 366 б.
- 2.13. Исмоилийлар ва Исмоилийлар давлати // Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 4 том. Зебуннисо-Конибил. Давлат илмий нашриёти. 2005. – Б. 248-249.

- 2.14. Krayev Yu.V. Otkritie karaxanidskoy nastennoy jivopisi v Samarkande // Vestnik istorii literatury iskusstva. T. VI. – M., 2009. – S. 24.
- 2.15. Махмудов Қ. Туркий кавмлар тақдири // Фан ва турмуш. –Тошкент, 1990, – № 12. – Б. 20.
- 2.16. Низомулмулк. Сиёсатнома ёки Сияр ул-мулк / Таржимонлар Воҳидов Ш., Эркинов А. – Тошкент., Адолат. 1997. – 255 б.
- 2.17. Nemseva N.B. Shohizinda -T., O`zbekiston, 1965. – B. 5.
- 2.18. Oripov B. O`zbekiston me'morchiligi va san'ati tarixi. – Namangan, 2007. – B. 44.
- 2.19. Петрушевский И.П. Сельджукское государство. Советская историческая энциклопедия. Т.12. – Москва, 1976. – С. 720.
- 2.20. Pidayev Sh.R. Severnie predeli Shaxizindinskogo kladbisha // K istoricheskoy topografii drevnego i srednevekovogo Samarkanda. – Tashkent, 1981. – S. 46.
- 2.21. Салжуқийлар давлати // Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 7 том. Парчин-солиқ. – Тошкент., Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат миллий нашриёти, 2004. – Б. 446.
- 2.22. Строева Л. В. Движение исмаилитов в Исфахане в 1100-1107 гг. // «Вестник ЛГУ». –Ленинград, 1962. – № 14. – С. 60-66.
- 2.23. Tashxodjaev Sh. S. Samarkandskiy jiloy dom IX-X vv. // IMKU. Vip. 13. Tashkent, 1977. – S. 52.
- Usmonov Q., Sodiqov M. Madaniyatshunoslik. O`quv qo`llanma. – Toshkent.: Iqtisod-Moliya, 2008. – B. 26.
- 2.24. Успенский Ф. И. История Византийской империи. Т.3. – М-Л., 1948. – 274 с.
- 2.25. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 462 б.
- 2.26. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-qism. – Toshkent: Sharq, 2010. – 512 б.

- 2.27. Sagdullayev A., Ergashev F. O`zbekiston tarixi fani bo`yicha o`quv qo`llanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 99.
- 2.28. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. 1-qism. – T.: Sharq, 2010. – 422 b.
- 2.29. O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 6-tom. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 2005. – B.169.
- 2.30. O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 17-tom. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 2005. – B. 562.
- 2.31. Ҳашшошийлар // Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 11 том. Қизилқўмит-Ҳурмўз. Давлат илмий нашриёти. 2005. – Б. 322-323.

III. Internet saytlari

- 3.1. Minorai Kalon // [www. Golos Uzbekistana](http://www.GolosUzbekistana).
- 3.2. Vobkent minorasi // [www. vikipediya.uz](http://www.vikipediya.uz).
- 3.3. Termiz tarixi // [www. narod.uz](http://www.narod.uz).